جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
9-fevral
№ 7 (7)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

BUGUN — HAZRAT ALISHER NAVOIY TAVALLUD TOPGAN KUN

“ADL ILA OLAM YUZIN OBOD QIL...”

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yarkan, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev adolat tamoyilini islohotlarning bosh mezoni sifatida tanladi. Mamlakatimizda insonning huquq va manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida mutafakkir shoirning xulosalari har qachongidan hayotiy va dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ma’lum bo‘ladiki, jamiyatdagi ezgu niyatli kuchlarni yagona maqsad yo‘lida birlashtiruvchi ushbu qadriyat milliy davlatchiligimiz tafakkurida muhim o‘rin egallaydi. Endigi vazifa — mazkur ma’naviy-huquqiy qadriyatni hayot tarzimizning bosh mezoniga aylantirish, har bir ishda adolat tamoyiliga rioya etish. Ana shunda hazrat Alisher Navoiyning ruhi bizdan shod, hayotimiz va ko‘nglimiz obod bo‘ladi.

TAHRIRIYATDAN



Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Ulug‘ shoir o‘zining she’riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egalladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

Hamma Vaqtdan qo‘rqadi, Vaqt esa Misr ehromlaridan, degan naql bor. Nazarimda, Mir Alisher Navoiy hazratlarining shaxsiyati va ijodiga ham ayni shu ta’rif to‘la-to‘kis mos tushadi. Olti asrga yaqin muddat mobaynida kishilik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’rifiy jabhalarida ko‘p o‘zgarish va evrilishlar yuz berdi. Ammo hanuzgacha bashariyat farzandlari hazrat Navoiy yaratgan buyuk ma’naviy merosning mohiyatini to‘la anglab olganicha yo‘q. XXI asr odamlari Alisher Navoiy yashagan davrga ko‘ra karrasiga ko‘proq rohat va farog‘atda, farovon hayot kechirmoqdalar. Ammo ma’naviy poklik, ruhiy yuksalish masalasida ulug‘ bobokalonimiz erishgan darajalar biz uchun shunchaki qo‘l yetmas orzu bo‘lib qolmoqda.

Ijodkorlarning taqdiri ijod jarayoni kabi turfa va xilma-xil kechadi. Tarixda Umar Xayyom kabi ulug‘ shoirlar o‘tganki, hayotligi davrida ko‘pchilik hatto ularning badiiy ijod bilan shug‘ullanishidan ham bexabar edi. Ammo vafotidan keyin ular dunyoning eng mashhur shoirlaridan biriga aylanib, yozgan bayt-u g‘azallari tillarda doston bo‘ladi. Yana bir toifa qalamkashlar borki, hayotlik paytida barcha unvon-u mansab, e’tibor va ehtiromga sazovor bo‘lishadi. Ammo ular yozgan bitiklarning umri o‘zlarining umrlaridan ham qisqaroq bo‘ladi.

Alisher Navoiy shu ma’noda baxtli shoir edi: uning ijodi hayotligi paytidayoq Xoja Ahror Valiy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy kabi zamonasining eng ulug‘ mutafakkirlari e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Vafotidan keyin ham butun bashariyat uning benazir shaxsiyati va bebaho ilmiy-ijodiy merosiga buyuk muhabbat va ehtirom ila munosabatda bo‘lmoqda. O‘tgan davr mobaynida saltanatlar, tuzum va tutumlar necha bor almashdi. Ammo Navoiyning ma’naviy merosi barcha siyosat va rayosatlardan baland turib, kishilarni odamiylikning munavvar manzillariga chorlovchi, mehr-muhabbat, shafqat va muruvvat, vafo va sadoqatning tolmas hudaychisi bo‘lib qolaverdi.

Nafsilamrini aytganda, shu choqqacha Alisher Navoiyning merosini ommalashtirish bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa hamki, uning shaxsiyatini to‘g‘ri va to‘laqonli anglash yo‘lidagi izlanishlarni ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Haligacha Navoiy deganda sobiq sovet davrida suratga olingan badiiy film ta’sirida Husayn Boyqaro bilan qiz talashgan, unga qarshi kurashaverib ancha erta munkillab qolgan nuroniy mo‘ysafidni tasavvur etib yuramiz. Bugungi davrda matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali taralayotgan qo‘shqavatli ta’rif-tavsiflar ta’sirida yoshlarimiz Navoiyni odam bolasi yaqinlashishi mumkin bo‘lmagan ma’naviy cho‘qqi, ta’bir joiz bo‘lsa, bir topinch — butga o‘xshatishadi. Holbuki, Alisher Navoiy o‘zining iste’dodini katta mehnat va mashaqqatlar bilan, sof niyat va cheksiz g‘ayrat bilan kamolga yetkazib, buyuklikning asrori — oddiylik, odamiylikda ekanini o‘z hayoti misolida isbotlagan dono maslahatgo‘y, xolis yordamchi, chin do‘st va donishmand muallimdir. Uning hayot yo‘li va maslakmatlabini to‘g‘ri va tushunarli tilda yetkazish bugungi kunda har qachongidan dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Alisher Navoiy ham boshqa mutafakkirlar qatori asosan olam va odam, hayot va o‘lim, Yaratgan va yaratiq kabi umumbashariy va barcha davr-u zamon uchun muhim bo‘lgan muammolar ustida mushohada yuritadi. Uning insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan fikrlari va umumlashmalari boshqa mumtoz mutafakkirlarning qarashlari bilan hamohang bo‘lishi barobarida, muhim bir xususiyati bilan alohida ajralib turadi — uning ijtimoiy hayot, inson va jamiyat, olam va odam tabiati haqidagi xulosalari shaxsiy tajribalar, hayotiy kuzatuvlar asosida shakllangan. Boshqacha qilib aytganda, Navoiyning fikrlari o‘ta hayotiy, amaliyot bilan ko‘proq uyg‘undir. Davlat va jamoat arbobi sifatida hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan, turli-tuman odamlar bilan muloqot qilib, turfa sinovlarni boshidan kechirgan va gohida juda qimmatga tushgan tajribalarini go‘zal badiiy tilda ifodalagan donishmand Navoiyning fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Ayniqsa, adolat mavzusi Navoiy ijodining o‘q tomirini tashkil etadi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Ijtimoiy hayot barqarorligining birlamchi sharti adolat ekaniga o‘z hayoti davomida bot-bot imon keltirgan mutafakkir turli shakl va yo‘sinda adl va insofning vasfini keltiradi — gohida ikki yorning do‘stlik yo‘lidagi fidoyiligi misolida tarannum etsa, ba’zan saltanat ahlining hayotini ibrat o‘laroq misol keltiradi. Kezi kelganda ramziy-tamsiliy hikoyalar vositasida adolatning mohiyatini ochib berishga harakat qilsa, ayrim hollarda ishqiy misralar orqali ham adolat hikmatini uqtiradi.

Mutafakkir shoirning aqidasiga ko‘ra, adolat — tengsizlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdan iborat bo‘lib, davlat arboblari zimmasidagi eng katta mas’uliyatdir. Ayniqsa, mulozimlar bilan munosabatda mo‘tadillik va me’yorni ushlash alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o‘zgalar bilan munosabatini o‘zining jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi hamda buning evaziga oladigan ulushini taqqoslash orqali baholaydi. Ushbu nisbat bo‘yicha jamiyat oliy, o‘rta va quyi tabaqalarga bo‘linadi. Elboshilardan esa mazkur ijtimoiy iyerarxiyani to‘g‘ri tasniflagan holda, ulug‘ darajali odamlarga martabasiga yarasha hurmat va izzat bilan, endi mansab pillapoyalariga qadam qo‘ygan yoshlarga muruvvat va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Beklarga navkar kabi, navkarga esa beklar singari munosabatda bo‘lish bir xil xatarlidir. Birida bek ranjib, xavfli dushmanga aylansa, ikkinchi holatda navkar o‘z haddini unutib, nodon do‘st kabi bilib-bilmay zarar keltirishi mumkin. O‘rta bo‘g‘indagi mulozimlar bilan ham o‘rtacha munosabatda bo‘lish to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Ayni shu holat, ya’ni har bir kishiga o‘z salohiyati, iqtidori va nufuziga qarab muomala qilish adolatning birlamchi shartidir:

Kerak qilsa, ulkim tilar shohliq,
Sipah borcha holidin ogohliq.

Uluqqa uluqcha ato aylasa –
Kichikka kichikcha saxo aylasa.

Kim etsa vasatliq yo‘linda zuhur,
Anga tuzsa oyini “xayril-umur”.

Ne tutsa ulug‘ni qoshida kichik,
Ne qilsa kichikni ulug‘ chargalik.

(“Saddi Iskandariy”, 28-bob.)

(Davomi 3-sahifada)



HUSAYNIYNING ALISHER NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMASI

La’li jonbaxshindin ayr-u obi hayvonni netay?
Har dam ar yuz jon berur, jononasiz jonni netay?
Gar emas manzur yuzing, hur-u g‘ilmonni netay?
Gulshani ko‘yungdin ayr-u bog‘i rizvonni netay?
Boshima gar gul sochar, sensiz gulafshonni netay?

Hajri anduhida to gulshan aro qildim guzar,
Sarv bo‘yi qomatingning naxlidin berdi xabar,
Lekin oning vaslidin ne bahra topdim, ne samar,
Naxli qadding chun emas giryon ko‘zumda jilvagar,
Jo‘ybor atrofida sarvi xiromonni netay?


Jism-u jonni istamon, billahki, jonondan judo,
Ko‘rsang ul mahvashni, holim arz etib ayt, ey sabo,
Lek zinhor ollida bu nav’ qilg‘aysen ado,
Ul itingga bo‘lmasa to‘ma navolingda fido,
Za’flik paykarni naylay, notavon jonni netay?

Bir dam, ey ahbob, har sori qoshimdan ketmangiz,
Har nakim derman, muvajjah bo‘lmasa, eshitmangiz,
Buki derman chehradin qonlig‘ yoshim oritmangiz,
La’lgun ashkim labi hijronida ayb etmangiz,
Ko‘z yo‘lidin to‘kmayin bag‘rimdagi qonni netay?

Bu ajabdurkim, sanga ma’lum bo‘lmaydur bu sir –
Kim, erurmen la’li shavqidin o‘lumga muntazir,
Gar suyungdin har nafas yuz jom bersang, bor muzir,
Zulmati hajrida chashmang vasfin etma, ey Xizr,
Menki umrumdan to‘yibmen, obi hayvonni netay?

So‘z ilojimdan dema, ey bahri ishq ichra g‘ariq,
Kim bo‘lubtur deb g‘amingdin dog‘ ila jisming hariq,
Gar manga borsen muhibbu mushfiq-u yor-u shafiq,
Dog‘ima marhamni ko‘p taklif qilma, ey rafiq,
Tuttum ul dog‘im o‘ngaldi, dog‘i hijronni netay?

To ayirdi mendin ul mahvashni charxi kajnihod,
Ey Husayniy, telba ko‘nglum bo‘lmadi bir lahza shod,
Oqibat chun topmadim ul sho‘x vaslidin murod,
Yordin ayr-u buzug‘ ko‘nglumga qildim xayrbod,
Ey Navoiy, o‘yla ganj o‘lmay chu vayronni netay?



TADQIQOT

“NAVOIY YOMON BO‘LSA, SEN YAXSHI BO‘L...”

1. NAVO VA BENAVOLIK

So‘z — o‘ta tilsimli hodisa. U juda jo‘n bo‘lishi ham, nihoyatda murakkab, qatma-qat ma’noli bo‘lishi ham mumkin. So‘zning keyingi xususiyati ibora va jumlalarning ma’nosini yana ham murakkablashtirishi tabiiy. Adabiyot so‘z san’ati sifatida nutqning bu xususiyatidan unumli foydalanadi, mo‘jizalar yaratadi. Ayniqsa, Navoiy she’riyati.

Uning ijodiy merosida muhim o‘rin tutuvchi so‘zlardan biri — “navo”. Shu qadar muhimki, bu so‘zning mumtoz adabiyotda navobaxsh, navogoh, navozanda, navosoz, navosiz, benavo kabi o‘ndan ziyod hosilalari muntazam qo‘llangan.

“Navo” so‘zining o‘zi ham ko‘p ma’noli. Misol uchun, ulardan biri Markaziy Osiyo arxitekturasida arka ma’nosiga ega, yana biri uy jihozlarini bildiradi. Bugungi o‘zbek tilida bu so‘z kuy, qo‘shiq ma’nosini anglatadi, xolos. Bu taassufga loyiq hol. Zotan, kuy, qo‘shiq “navo” so‘zining eng tub ma’nosi ham emas, eng muhim ma’nosi ham emas.

Misol uchun, Navoiyning “Masnaviy” asaridagi mana bu baytni olaylik:

Ne bir ahli davlatdin oncha umid
Ki, andin navo topsa bir noumid.

Unda Abulqosim vafotidan so‘ng Xurosonda yuzaga kelgan tang ahvol tilga olingan. Bu baytda “navo” deganda nima ko‘zda tutilgan? Ravshanki, aslo musiqa emas.

(Davomi 4-sahifada)

MUMTOZ ADABIYOT

BOBUR — NAVOIYSHUNOS

Alisher Navoiyning kichik zamondoshi, aytish mumkinki, Navoiyni eng teran va aniq anglagan zotlardan biri, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Boburdir. U ham tarixchi, ham shoir, ham munaqqid, ham adabiyot tarixchisi o‘laroq Navoiy dahosiga ko‘proq va aniqroq yaqinlashgan.

Avvalo, Bobur ikkinchi qatla Samarqandni fath etganda (1500-yil) Hirotdan shaxsan Navoiydan tabrik maktubi oladi. Bu haqda uning o‘zi “Vaqoye’”(Boburnoma) sida zikr etgan. Afsuski, xuddi shu o‘rinda bu ruq’a(xat) ni keyinchalik taloto‘plarda yo‘qotib qo‘yganini nadomat bilan eslagan.

Demak, Amir Alisherbek bu davrda temuriylar saltanatining kelajagi sifatida Bobur mirzoga umid bilan ko‘z tikkan, u haqda ulug‘ mujdalarda bo‘lgan. Bobur o‘z shijoati va mardonaligi bilan butun Movarounnahr hamda Xuroson yuqori davralarida tilga tushgan, davr arboblarining diqqat-e’tiborida bo‘lgan..

(Davomi 5-sahifada)

XUSHXABAR

“BADOYE’ UL-BIDOYA” TURK TILIDA

Hazrat Alisher Navoiy o‘z davridayoq olamshumul g‘oyalar tarannum etilgan go‘zal va bebaho asarlari bilan ellarni, uluslarni birlashtirib, Hirotdan to Xurosonga qadar yakqalam aylagan edi. E’tiborli jihati, oradan besh asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsada, mutafakkir ajdodimizning ulkan ma’naviy merosi hamon o‘zining sehri va jozibasi bilan millionlab adabiyot muxlislarining ko‘nglini munavvar qilib kelmoqda. Shu bois ham Alisher Navoiy asarlari muntazam ravishda xorijiy tillarga tarjima qilinib, dunyo xalqlari tomonidan sevib o‘qilmoqda. So‘nggi yillarda ulug‘ shoirning shoh asari — “Xamsa” majmuasi qardosh qozoq va ozarbayjon tillarida chop etilgani ham shundan dalolat beradi.

Hech shubhasiz, 2021-yili Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi muhtaram Prezidentimizning qarori asosida yurtimizda keng nishonlangani madaniy hayotimizda katta voqea bo‘ldi. Ana shu tarixiy hujjatda buyuk allomaning nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixi va adabiy-estetik tafakkuri rivojida alohida o‘rin tutadigan benazir ijodiy merosini yanada kengroq o‘rganish va targ‘ib qilish borasida bir qancha vazifalar belgilab berilgan edi. Xususan, Alisher Navoiy asarlarini har tomonlama tadqiq etish, noyob qo‘lyozmalarining tanqidiy matn va faksimil nusxalarini tayyorlash, ularni xorijiy tillarga tarjima qilishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

(Davomi 2-sahifada)

“BADOYE’ UL-BIDOYA” TURK TILIDA

(Boshlanishi 1-sahifada)

Oradan o‘tgan qisqa vaqt ichida bu yo‘nalishda bir qator natijalarga erishildi. Misol uchun, iqtidorli navoiyshunos Yusuf Tursunov tomonidan Alisher Navoiyning “Munshaot”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarining tanqidiy matni, tabdili va faksimil nashri yuzaga chiqarilgan bo‘lsa, turkiyalik hamkorlar bilan shoir asarlarini ushbu mamlakatda nashr etish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Ana shunday sa’y-harakatlar natijasida yaqinda Turkiyada “Badoye’ ul-bidoya” asarining tanqidiy matni va faksimil nashri dunyo yuzini ko‘rdi. Bu ish Istanbul madaniyat instituti professori Vohit Turk hamda Turkiya qo‘lyozma asarlar boshqonligi bilan hamkorlikda amalga oshirildi.


E’tiborli jihati, ushbu kitob Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Tayyip Erdog‘anning so‘zboshisi bilan chop etildi. Unda keyingi yillarda qardosh Turkiya va O‘zbekiston mamlakatlari o‘rtasida ilmiy, madaniy-gumanitar hamkorliklar jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgani alohida qayd etilib, Alisher Navoiy merosining turkiy dunyo tamaddunidagi, ma’naviy hayotidagi o‘rniga yuksak baho berilgan.

Turkiyada nashr etish uchun aynan ushbu qo‘lyozmaning tanlangani bejiz emas. Alisher Navoiy bilan bir davrda yashab ijod qilgan Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy kabi mashhur xattotlarning nomlari ko‘pchilikka yaxshi tanish. Ular orasida Ali ibn Nurning ham alohida o‘rni bor. Yuqorida tilga olingan asar qo‘lyozmasi 1486-yilda aynan xattot Ali ibn Nur tomonidan Hirotda kitobat qilingan. “Badoye’ ul-bidoya” asariga Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan tartib berilgani, shoir hayotligi paytida Hirotda kitobat qilingani uning qimmatini oshiradi. Ya’ni katta ehtimol bilan Alisher Navoiy bu qo‘lyozmani ko‘rgan, undan xabardor bo‘lgan.

Bugungi kungacha mazkur devonning Parij, London, Tehron, Boku, Istanbul, Toshkent, Tehron II nusxalari fanga ma’lum. Ushbu nusxalar orasida Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 216-raqam ostida saqlanayotgan “Badoye’ ul-bidoya” nusxasi alohida ajralib turadi.

Mazkur nashr orqali turkiyalik kitobxonlar Alisher Navoiy ijodi, “Badoye’ ul-bidoya”ning yozilishidan ko‘zlangan maqsad, uning tuzilishi, devon tartib berish an’analari haqida boy ma’lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin. Chunki ushbu nashrda asar qo‘lyozmasidagi mumtoz janrlarga xos bo‘lgan xususiyatlar saqlab qolingan. Har bir namunadan so‘ng aruz vaznining qaysi bahrida yozilgani haqida ma’lumot taqdim etilgan. Kitobdan muxtasar tadqiqot-muqaddima, tanqidiy matn va qo‘lyozmaning faksimili ham o‘rin olgan. Shubhasiz, bu nashr turkiyalik olim va tadqiqotchilar uchun Alisher Navoiy merosini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kezi kelganda, mana shunday muhim loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishda yaqindan yordam bergan Turkiya qo‘lyozma asarlar boshqonligi hamda o‘zining o‘ttiz besh yillik umrini Alisher Navoiy ijodini o‘rganish va tarjima qilishga bag‘ishlagan taniqli navoiyshunos olim Vohit Turkka alohida minnatdorlik bildiramiz.



O‘ylaymizki, bunday hamkorliklar kelgusida ham izchil davom etadi. Adabiyotshunos olimlardan biri Alisher Navoiyni “Turkiy adabiyotning poytaxti” degan edi. Bu ta’rifda zarracha mubolag‘a yo‘q. Chunki buyuk mutafakkir ajdodimizning badiiy, falsafiy, ilmiy jihatdan mukammal asarlari barchamizning ongimiz va tafakkurimizga, shuurimizga kuch-quvvat beradigan, insonlarni, xalqlarni birlashtiradigan o‘ziga xos ma’naviy makon vazifasini ham o‘taydi. Biz bugun ana shu haqiqatni yanada chuqurroq anglab yetmoqdamiz.

Dilnoza RUSTAMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

Bugun – Alisher Navoiy tavallud topgan kun munosabati bilan uning Astana shahrida qad rostlagan haykali poyiga ilk marta gullar qo‘yiladi va bu muhtasham yodgorlik atrofida adabiyot muxlislari jam bo‘lib, mutafakkirning hayoti va ijodi haqida suhbat quradi.

2022-yil 22-dekabr kuni O‘zbekiston va Qozog‘iston Prezidentlari uchrashuvida Astana shahrida Alisher Navoiyga haykal o‘rnatish bo‘yicha qaror qabul qilingan va o‘tgan 2023-yilning avgust oyida – yurtimiz Mustaqillik kuni bayrami arafasida ushbu yodgorlik qad rostlagan edi.

Qozog‘iston poytaxtining markaziy ko‘chalardan birida o‘rnatilgan, balandligi to‘rt metrdan ziyod Alisher Navoiy haykalini O‘zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Jasvant Annazarov ishlagan.



TURKIY XALQLAR MA’NAVIYATINING OLTIN USTUNI

Ta’kidlash joizki, yildan yilga rivojlanib borayotgan o‘zbek-qozoq adabiy hamkorligi asosida ikki xalqning buyuk mutafakkirlari – Alisher Navoiy va Abay Qo‘nonboyev hayoti va ijodini o‘rganish, asrlar sinovidan o‘tgan asarlarini tarjima qilish qutlug‘ ishlar sirasidandir. Jumladan, o‘tgan yili buyuk bobomizning “Xamsa”siga kiritilgan dostonlari qozoq tilida nashr etildi. Umrining qirq yilini Alisher Navoiy asarlarini qozoq tiliga tarjima qilishga sarflagan shoir va tarjimon, Qozog‘iston Respublikasi Davlat mukofoti sohibi Nesipbek Aituli Navoiy shahriga kelganda qalb so‘zlarini shunday bayon etgan edi:

“Men yoshligimdan Navoiyning “Xamsa”sini tarjima qilib kelaman. Ilk tarjima qilgan dostonim “Saddi Iskandariy” 1989-yili Olmaotadagi “Jazushi” nashriyotida nashr etildi. 2008-yilga kelib qayta bosildi. 2019-yili “Layli va Majnun” dostoni bilan birga “Xamsa” nomida yana qayta nashrdan chiqdi. Bungacha, 1991-yili Navoiyning bir necha g‘azallari mening tarjimamda “Baqo guli” to‘plamida chiqdi. Hozir “Farhod va Shirin” dostonining tarjimasini yakunlayapman. “Xamsa”ning boshqa dostonlarini ham tarjima qilishga kirishdim. “Xamsa”dagi barcha dostonlarni to‘liq tarjima qilib, ulug‘ shoirning muqaddas ruhini shod etishni orzu qilaman! Menga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a’zo bo‘lish, buyuk shoir nomi bilan atalgan Navoiy shahrining faxriy fuqarosi bo‘lish baxti buyurdi”.

O‘zbek kitobxonlari orasida ham qardosh qozoq adiblari ijodiga qiziqish kuchayib bormoqda. Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz bilgan buyuk qozoq adibi Abay ijodini o‘rganish, asarlarini o‘zbek tiliga o‘girish borasida ham keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Toshkent shahrining markaziy ko‘chalaridan biriga qozoq adabiyoti asoschisi Abay Qo‘nonboyev haykali o‘rnatildi. O‘zbekiston Prezidentining “Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan buyuk shoir tug‘ilgan sana – 10-avgust kuni Abay Qo‘nonboyev haykali poyida mushoira va boshqa ko‘plab tadbirlar uyushtiriladi. “Abay asarlarining bilimdoni” insholar ko‘rik-tanlovini o‘tkazish an’ana tusini oldi. Abay asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda hamda uning “Saylanma”, “Tarbiya kitobi” to‘plamlari o‘zbek tilida nashr etildi.

Bugun mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning Tokio, Shanxay, Vashington, Moskva, Minsk, Boku, Mozori Sharif, O‘sh, Dushanbe, Seul kabi shaharlarda qad rostlagan haykallari poyiga ham gullar qo‘yiladi, g‘azallari o‘qiladi. Shunday paytlarda hazratning muborak satrlari yodimizga tushadi:

Olibmen taxt-u farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Humoyun AKBAROV

ZAMON JADIDLARI

“... KIM, DEGAYLAR DAHR ARO QOLDI FALONDIN YAXSHILIG‘...”

U maktabni qaytadan qurdi hisob. Yarim asrdan beri ta’mir ko‘rmagan ilm maskani yangi zamon jadidining himmati bilan nufuzli maktablar qatoriga kirdi. U naqd yetti milliard so‘m ajratdi maktab ta’miriga. Bunday saxovatning sababi – shu maktabda harf tanigani, shu dargohda ta’lim olgani. Qaniydi, o‘zi o‘qigan maktabini obod qilgan Isroil Yunusov kabi jo‘mardlar ko‘paysa, ma’rifat fidolari soni ortsa... Qaniydi har qaysi maktab rahbari Ziyoda Haydarova kabi har ishning qalovini topsa...

Hammasi 2018-yilning sentyabrida boshlandi. Maktab binosining nochor ahvolga kelib qolganidan “yegani taniga singmayotgan” Ziyoda shu maskanda ta’lim olgan sarmoyadorlar ro‘yxatini tuzdi. Niyati davlatmanddan pul undirish emas, to‘kilaman deb turgan ta’lim dargohini ta’mirlash uchun hashar uyushtirish edi.

– Aylanib-o‘rgilib 1991-yil bitiruvchisi, “REAL HOUSE” kompaniyasi ta’sischisi Isroil Yunusovning oldiga bordim, – deydi u. “Siz shu maktabda o‘qigansiz, men esa direktorman. Maktab ancha eskirib qolgan. Biroz kutsam-ku, davlat dasturiga kiradi. Lekin sabrim chidamay ketyapti. O‘quvchilarim yangi, shinam, zamonaviy maktabda o‘qisaydim, deyman. Yordam qilsangiz yaxshi bo‘lardi. Men maktabimni respublikaning manaman degan ilm o‘chog‘iga aylantirmoqchiman”, dedim. Isroil aka: “Juda yaxshi o‘ylabsiz-da. Mening oldimga “uy qurib ber”, “to‘yimga ko‘maklash”, “mashina olishim kerak”, deb yordam so‘rab kelishadi. Lekin “O‘qigan maktabingni ta’mirlashga yordam ber”, deb faqat siz keldingiz. Bo‘ldi, bu masala hal bo‘ldi deyavering. Tayyorgarlikni boshlang. Mablag‘ mendan”, dedi. O‘sha kunni hech qachon esimdan chiqarmasa kerak.



Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 81-matematikaga ixtisoslashtirilgan maktab direktori Ziyoda Haydarovaning bunday himmatdan ko‘ngli tog‘day ko‘tarilgan bo‘lsa-da: “Tadbirkor maktabning chakka o‘tib yotgan tomini yopish va isitish tizimi uchungina mablag‘ bersayam mayliydi...”, degan xayolda edi. Axir, 960 o‘rinli maktab binosiga hazilakam pul kerakmi?..

Maktabga kelib, ahvolni o‘rgangan tadbirkor Isroil Yunusov Ziyodaxonga bu binoning “suyagi”dan boshqa hamma narsasini qo‘porib tashlashi kerakligini aytdi va maktab ta’miri bitguncha tik turib berishiga ishontirdi. Direktor yangi o‘quv yilini yangi maktabda boshlashga ulgurish maqsadida boshqarmaga yugurdi. O‘quvchilarni qo‘shni maktablarga ko‘chirib turish va kun isishi bilan ta’mirni boshlab yuborishni niyat qildi. Lekin borgan eshigidan hafsalasi pir bo‘lib chiqdi. Chunki, bugunning gapi ertaga to‘g‘ri kelarmidi?.. “Mayli, ishni boshlang” deyishgani bilan, o‘quvchilar u yoqdan bu yoqqa sarson qilinsa-yu, homiy beradigan pul to‘xtab qolsa-chi?..

U indamay yozgi ta’tilni kutdi. O‘quvchilar ta’tilga chiqqan kuniyoq hasharchilarni yig‘di. Imtihonlarga xalaqit qilmagan holda ta’mir ishlari boshlandi. Tadbirkor mard keldi: 200 nafar ishchini ishga soldi. Eng qiziq joyi shunda boshlandi. Chunki 200 nafar ishchini osh-ovqat bilan ta’minlash kerak-ku. Ziyoda tashlab qo‘ygan ro‘yxatini yana qo‘liga oldi. Butun mahallaga e’lon qildi: “Maktabimizni qaytadan quramiz, har kim qo‘lidan kelgan yordamini ayamasin”. Ota-onalarni yig‘ib: “Bu sizning bolalaringiz uchun. Farzandlaringiz toza, chiroyli joylarda o‘qisin”, dedi. Lekin har kim bu gapni har xil tushundi. “Uch oyda to‘rt qavatli joyni qayta qurib bo‘larmidi?” deganlar bolalarining hujjatini olib, boshqa maktabga topshirdi. Ziyoda maktab hovlisiga katta doshqozon-o‘choq o‘rnatib, kunini ham, tunini ham shu yerda o‘tkaza boshladi. Ishchan rahbarning joniga mahallasi ham ora kirdi. Birov bitta qo‘yni so‘yib keltirsa, boshqa birov tovuq, kurka go‘shti olib kelib, sho‘rva qaynatdi. “Bor – boricha, yo‘q – holicha” deganlariday, kim to‘rtta non, kim bir kosa suzma ko‘tarib chiqdi.

– Biz shunchalar oqibatli millat ekanmizki, aytsam ishonmaysiz, – deya ko‘zlari yoshlandi uning. – Bir oila bor. O‘rtahol, turmush sharoiti og‘irroq. Bir kuni bir kilo pomidor bilan bir kilo bodring olib chiqibdi. Qo‘ysangiz-chi, siz nega bunday qildingiz desam, “Ziyodaxon, katta ishning boshidasiz. Qo‘limdan boshqasi kelmaydi. Hech bo‘lmasa, ustalar shuni to‘g‘rab yeyishadi-ku, deb ilindim. Ko‘rmaganga olib o‘tirishga uyaldim”, dedi. Axir, buni unutib bo‘ladimi?!.

Bu orada homiy Isroil Yunusov shunchasini qildim, bu yog‘ini o‘zi eplasin, deb qarab o‘tirmadi. Vaqt topib, “hormanglar”ga kelib turdi. Bir necha bor ishning qanday ketayotganidan xabar olish barobarida mashinasini to‘ldirib bozor-o‘char qilib keltirdi.

– Nihoyat, uchinchi sentyabr kuni maktabni ochadigan bo‘ldik. To‘qson kunda bitdi ishimiz. Bino to‘liq ta’mirlandi. Isitish tizimi tashqi va ichki quvurlari almashtirilib, izolyatsiya qilindi. Isroil Yunusov oxirida yana bir savob amalga qo‘l urdi: hovliga ekish uchun manzarali daraxtlar-u gul ko‘chatlari keltirib berdi. U kishini duo qila-qila ekdik. Maktabni tadbirga tayyorladik. Xayolimda hamma ko‘rgani keladiganday. Bolalarining hujjatlarini olib ketganlar qaytib kelishdi. Bola sig‘may ketdi maktabga. Har bir o‘quvchimni elchini qarshi olganday kutib oldim. Har birining ko‘zidagi hayrat va sevinch ko‘nglimni tog‘day ko‘tardi. Ich-ichimdan butun bir maktabning o‘qituvchi-yu o‘quvchisiga shunday katta baxtiyorlik ulashgan “REAL HOUSE” ta’sischisiga rahmatlar aytdim. “Yaxshiyam bu inson shu maktabda o‘qigan ekan”, deyman ichimda.

Ziyoda hovlidagi issiqxonani, tuzlamalar tayyorlashga mo‘ljallangan yerto‘la-omborni, ekobog‘ni, 200 kishilik oshxonani, 150 o‘rinli faollar zalini, shahar hokimligi tomonidan yangicha tus berilgan sport maydonlarini, telefonlar qo‘yiladigan garderoblarni, jadidlar burchagi, xullas, hamma-hammasini ko‘rsatdi.

Bugun u boshqarayotgan 81-maktabda o‘quvchi soni yana mingtaga ko‘payib, 1900 nafarga yetgan bo‘lsa, ularga 87 nafar tajribali ustozlar saboq bermoqda. Maktab uning sa’y-harakatlari bilan matematika faniga ixtisoslashtirilgan. Eng quvonarlisi, ta’mir ta’limga ham ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Maktab xalqaro fan olimpiadalariga 2020-yili aniq fanlar bo‘yicha bir nafar o‘quvchi chiqargan bo‘lsa, 2023-yilda kimyo fanidan beshta medalni qo‘lga kiritdi. O‘quvchilarning ilm olishi, o‘qituvchilarning faoliyat yuritishi uchun barqaror muhit yaratildi. Xalqaro doirada o‘tkazilgan “Eco-schools Uzbekistan” loyihasida g‘olib bo‘lib, Ekologik ta’lim jamg‘armasining (FEE) “7 qadam” dasturi bo‘yicha oliy mukofot – Yashil bayroq bilan taqdirlandi.



Bu muvaffaqiyatlarning asosi bor, albatta. Tinib-tinchimagan maktab rahbari qayerda bilim va salohiyati yuqori o‘qituvchi borligini bilsa, o‘ziga chorladi. Ish so‘rab kelgan yoshlardan, qaysi fan o‘qituvchisi bo‘lishidan qat’i nazar, ishga ijodiy yondashishini talab qildi. Uning maktabida bugun O‘zbekiston xalq o‘qituvchisidan tortib, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosigacha bor.

– 2021-yil reytingida eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan Navoiy shahridagi 11 va 13-umumta’lim maktablarining ishi-yo‘q. Hali oldinda belgilagan ko‘p vazifalar bor. Maktabimni butunlay yangilab bergan aziz insonga bergan va’damning ustidan chiqishim kerak. Shularga erishmagunimcha to‘xtamayman, – dedi Ziyoda Haydarova suhbatimiz yakunida.

Xullas, yozaman desam, maqolam nihoyasiga yetadigan emas. Aslida maqsadimiz ilm dargohiga katta mablag‘ tikkan olijanob inson xizmatini e’tirof etish edi. Ammo u kishining: “Men haqimda shart emas, o‘zimiz bilsak bo‘ldi”, degan ma’nodagi iltimoslarini rad etolmadik. Yaxshisi, har kim bu maktabni o‘z ko‘zi bilan ko‘rsin. Ibrat istaganlar “REAL HOUSE” ta’sischisi Isroil Yunusovning himmatiga guvoh bo‘lsin. Zero, hazrat Bobur aytganidek:

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q –
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.

Muhayyo PIRNAFASOVA

NOYOB TOPILMA

NAVOIYNING “TERMA DEVON”I

Hazrat Alisher Navoiy vafotidan to‘rt oy o‘tib, 1501-yil may oyida uning 130 she’ridan iborat bir to‘plam qo‘lyozma shaklida ko‘chirilgan. Biz surati orqali ayni devon bilan tanishish sharafiga muyassar bo‘ldik. Bu Navoiy ixlosmandlarining eng dastlabki to‘plami – “Terma devon”dir. Uni “Navoiyning 1501-yilgi “Terma devoni” nomi ostida navoiyshunoslikka olib kirish lozim deb hisoblaymiz.



Aftondil ERKINOV,
filologiya fanlari doktori

Alisher Navoiy devonlari qo‘lyozmalari O‘zbekiston va jahonning turli davlatlari kutubxonalarida saqlanmoqda. Keyingi yillarda xorijdagi qo‘lyozma fondlarida saqlanuvchi devonlarining yangi qo‘lyozma nusxalari aniqlanib, ilmiy muomalaga olib kirilayotir. Masalan, ushbu devonlarga kirgan she’rlar tarkibi aniqlanmoqda. Deylik, 2022-yili Alisher Navoiy “Badoye’ ul-bidoya” devonining ikkita nusxasi tarkibi qanday ekanini bilish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Gap shundaki, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Oysara Madaliyeva “Badoye’ ul-bidoya” asarining Erondagi Mashhad shahri kutubxonasida saqlanayotgan nusxasini, Turkiyaning Karabuk universitetida ustozlik qilayotgan o‘zbekistonlik olim Saidbek Boltaboyev esa Tehron shahridagi Eron Milliy kutubxonasidagi nusxasini aniqladi. Mazkur asarning Mashhaddagi nusxasi 1491-yili, Tehrondagisi esa 1501-yili ko‘chirilgan. Shu tariqa “Badoye’ ul-bidoya”ning Alisher Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgan nusxalari soni sakkiztaga yetdi. Mazkur manbashunos olimlarning sa’y-harakatlari tahsinga loyiq.

“XAZOYIN UL-MAONIY”DAN KEYIN: ALISHER NAVOIY DEVONLARINING 1499–1501-YILGI QO‘LYOZMALARI

AQSHning Nyu-York shahridagi Myetropoliten muzeyidagi Alisher Navoiy devoni (hijriy 905, milodiy 1499–1500-yillarda ko‘chirilgan) tarkibi bilan bevosita shu muzeyda noyob qo‘lyozmani o‘rganish orqali tanishishga muvaffaq bo‘lindi. Natijada ushbu nusxadagi she’rlar tarkibi bo‘yicha tadqiqotlar boshlandi. 2024-yilgacha Tehron shahridagi Malek muzeyi va kutubxonasida Alisher Navoiyning 4919-raqam bilan saqlanuvchi “Terma devon” qo‘lyozmasi haqida turk olimi Shodi Oydin katalogi orqali umumiy ma’lumotga ega edik. Mazkur qo‘lyozmaning ayrim sahifalari fotonusxalari internetda ham e’lon qilingan. Shu asosda kichik maqola ham nashr qilgan edik. Endilikda 4919-invertar raqamli “Terma devon” qo‘lyozmasining to‘liq fotonusxasi orqali bevosita uning tarkibini o‘rganish va she’rlar matniga oid yaxlit ma’lumot olishga muvaffaq bo‘ldik. Qo‘lyozma 43 varaq – 86 betdan iborat, 220x155 mm. hajmga ega. Har sahifada 11 qatordan she’r keltirilgan. Qo‘lyozma muqaddimasida shams va unvon mavjud. She’rlar matnlari ikki ustunda berilgan va atrofi zarhal ramka bilan o‘ralgan. Qo‘lyozma oxirida keltirilgan kolofonda uning ko‘chirib tugallanish sanasi arab tilidagi matnda ko‘rsatilgan: 906-yil, shavvol oyi (milodiy 1501-yil, may oyi) oxiri. Kolofonda o‘z davrida qo‘lyozma kotibining ism-sharifi keltirilgan, biroq keyinchalik noma’lum sabablarga ko‘ra uning nomi o‘chirilgan.

Manba so‘nggidagi arabcha yakun tarjimasi: “Bu sharif nusxa Alloh Muhammad va uning avlodlari hurmati ila gunohlarini kechirsin deguvchi faqir va haqir... qulning qo‘lida 906-yilning shavvol oyi oxirgi kunida tamom bo‘ldi”.

Qo‘lyozmada Alisher Navoiyning 127 g‘azali va 3 ruboiysi keltirilgan.

Qo‘lyozma boshlanishi (1b varaq):

Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug‘ro...

Qo‘lyozma tugallanishi (43a varaq):

Sen borg‘ali ortmish ko‘ngul zorlig‘i,
Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig‘i.
Bilman, unutulg‘anmu ekandur manga hajr,
Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig‘i.

Biz ilmiy adabiyotlarda mazkur qo‘lyozma haqida biror ma’lumot uchratmadik. Faqat Eron kutubxonalarida saqlanayotgan turkiy tilli qo‘lyozmalar katalogida mazkur asar haqida bir necha satr ma’lumot keltirilgan, xolos: u Alisher Navoiy devoni deb atalgan. Katalog muallifi shunday umumiy nom bergani uchun qo‘lyozmaning mohiyati – Navoiyning aynan qaysi va qanaqa devoni ekanligini qayd etmagan.

Mazkur majmua Alisher Navoiyning 1498-yili tartib berilishi yakunlangan to‘rt devondan iborat “Xazoyin ul-maoniy” to‘plamidan so‘ng tuzilgani va ancha kichik hajmdaligi sababli, uni shartli tarzda ulug‘ mutafakkirning terma devoni yoki “Navoiyning 1501-yilgi “Terma devoni”, deb atash mumkin. Kitobdagi barcha she’rlar “Xazoyin ul-maoniy”dan olingan. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu qo‘lyozmaga Alisher Navoiy hayotligi davrida tartib berishga kirishilgan bo‘lishi mumkin.

“TERMA DEVON” TARKIBI


Mazkur devondan 127 ta g‘azal va 3 ta ruboiy o‘rin olgan va “Xazoyin ul-maoniy”dan quyidagi ko‘rinishda she’rlar olingan: “G‘aroyib us-sig‘ar”dan 69 ta (53 foiz); “Navodir ush-shabob”dan 41 ta (32 foiz); “Badoye’ ul-vasat”dan 20 ta (15 foiz).

“Terma devon” uchun she’rlarni “Xazoyin ul-maoniy”dan saylab olinishi sabablarini izlab ko‘rish lozim. Nima uchun aynan “G‘aroyib us-sig‘ar”dan ko‘p she’r tanlab olingan-u, “Favoyid ul-kibar”dan birorta ham she’r olinmagan? “Terma devon”dagi g‘azallarning bir qismi “Xazoyin ul-maoniy”dagi hajmidan qisqartirilgan. Navoiy g‘azallari matnlarini qisqartirish holati uning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi she’rlarda ham uchraydi. Turkiyalik olima Tanju Seyxan g‘azallar hajmini kichraytirib berish usmonlilar va oqqo‘yunlilarda an’ana bo‘lgan, degan fikrni bildirgan edi.

Yana savol tug‘iladi: “Xazoyin ul-maoniy” 1498-yili tuzib bo‘linganini hisobga olsak, uning tarkibidagi 4-devon – “Favoyid ul-kibar” 1501-yili “Terma devon” tuzuvchisi qo‘lida bo‘lmaganmikan? Yoki buning boshqa bir sababi bormidi? Izlanishlarni davom ettirish kerak.



Devonning ilk sahifasi (1b)



Devonning so‘nggi sahifasi (43a)

She’rlarni terma devon uchun tanlab olish jarayonida ba’zi o‘zgarishlar ham amalga oshirilgan. Masalan, Navoiy g‘azallari hajmi qisqartirilgan, asosan 1-2 ta bayt, kam holatlarda 3-4 bayt olib tashlangan, baytlarning o‘rni, ba’zi harflar yoki so‘zlar almashgan.

“Terma devon”dagi shu kabi tafovut va xususiyatlar, devon uchun she’rlarni tanlash prinsiplarini maxsus tadqiq etish muhim. Masalan, Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”ga jami 2600 ta g‘azalini kiritgani bizga yaxshi ma’lum. Terma devondagi 127 g‘azal yuqoridagi asarning taxminan 20 dan bir qismiga, aniqrog‘i, 5 foizga to‘g‘ri keladi. Bular orasida Navoiyning xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan g‘azallari ham uchraydi.

“NAVOIYNING 1501-YILGI “TERMA DEVONI” VA OQQO‘YUNLILAR

Alisher Navoiy she’riyatining Oqqo‘yunli sulolasi bilan bog‘liq o‘rinlari mavjud. Bunga “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” (1471-yili ko‘chirilgan), “Sulton Ya’qub saylanmasi” (1481-yil) kabi Navoiy she’rlarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozmalar misol bo‘la oladi.

Biz tilga olgan “Navoiyning 1501-yilgi “Terma devoni” Tehrondagi Malek muzeyi va kutubxonasi tavsifida “Devoni turkmononi Oqqo‘yunlu” (Oqqo‘yunli turkmonlar devoni) deb nomlangan va Oqqo‘yunli turkmonlar davrida ko‘chirilgan, deb yozilgan. Ammo Oqqo‘yunlilarga ayni devonning nisbat berilishi sabablari ko‘rsatilmagan.

Oqqo‘yunlilar saltanati (1378–1501) qisman hozirgi Turkiyaning sharqi, Armaniston, Ozarbayjon, shimoliy Iroq va Eron hududlarida hukmronlik qilgan o‘g‘uz turklariga mansub ekanligi ma’lum. Turkmon deganda esa o‘sha davrlarda yashagan o‘g‘uz turklari tushunilgan. Bu so‘zni Alisher Navoiy ham “Farhod va Shirin” dostonida ayni ma’noda qo‘llagan:

Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sheroz-u Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.

Tilga olingan kutubxona tavsifida “Devoni turkmononi Oqqo‘yunlu” nomi qaysi asosda qo‘yilgani (qo‘lyozma naqshlari, qo‘lyozma yozuvi uslubi yoki boshqalar asosidami) aytilmagan. “Terma devon”dagi Navoiy she’rlar majmuasi “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi kabi shoir g‘azalining:

Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug‘ro –

bayti bilan boshlanadi. Bu bayt dastlab Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya”, keyinchalik “G‘aroyib us-sig‘ar” devonlarida keltirilgan. Lekin bu ikki devon ayni bayt bilan boshlanmagan, mazkur bayt uchinchi o‘rinda kelgan.

Alisher Navoiy hayotligi davrida (1471-yil) uning Oqqo‘yunlilar saltanatidagi muxlislari tomonidan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” tuzilgan edi. Undagi g‘azallar tilida shoir she’rlarini o‘g‘uzlashtirish holati yaqqol sezilib turadi (masalan, “topmadim” so‘zi o‘rniga “dopmadim”). Ko‘rib o‘tayotganimiz qo‘lyozmada esa bunday jihat yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Vaholanki, bu majmuadan 30 yil avval tartib berilgan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da bunday holat mavjud edi. Savollar ketidan savollar paydo bo‘laveradi.

Majmuaning Oqqo‘yunlilar muhitida tayyorlanganiga doir savollar bilan o‘g‘uz turklari qo‘lyozma san’ati, xususan, miniatyuralari bo‘yicha taniqli mutaxassis, turkiyalik professor Lola Uluchga murojaat etib, qo‘lyozma boshlanishidan bir necha sahifani olima e’tiboriga havola qildik. Lola Uluch qo‘lyozma nusxasi, aniqrog‘i, unvon – qo‘lyozmadagi asar matni boshlanishidan avval keltiriladigan rangli naqsh bilan tanishib, uning uslubi haqida shunday mulohazalarni bildirdi: “Fikrimcha, siz menga yuborgan tasvirni bemalol Sulton Xalilning Sherozdagi hukmronligi dastlabki yillarida yaratilgan, deyish mumkin. Boshqacha aytganda, u taxminan Alisher Navoiyning “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” qo‘lyozmasi yaratilgan davrga oid. Unvon naqshi tarkibida mavjud bo‘lgan qoratuproq, zamindek qora rangni men ko‘proq Qoraqo‘yunlilar yoki Sulton Xalil hukmronligining dastlabki vaqtlaridagi qo‘lyozmalar naqshlarida uchratib turaman”. Demak, qo‘lyozmadagi bezaklar uslubidan kelib chiqqan holda, Lola Uluch ham uning taxminan Oqqo‘yunlilar muhitida yaratilganini ta’kidlamoqda.

Ma’lumki, Qoraqo‘yunlilar (1410–1468) Oqqo‘yunlilar kabi sulola bo‘lib, ular ham Oqqo‘yunlilar yashagan zaminda umrguzaronlik qilgan o‘g‘uz turklari. Qoraqo‘yunlilar bilan kurashlar natijasida Oqqo‘yunlilar saltanati ular o‘rnini egallagan. Ma’lumot sifatida ta’kidlash o‘rinliki, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida Qoraqo‘yunlilar hukmdorlaridan Jahonshoh Haqiqiy (1435–1467) va Oqqo‘yunlilardan Sulton Ya’qubni (1478–1490) hukmdorlar qatorida eslab, ularning she’rlaridan namunalar keltiradi. Shu ma’noda olib qaraganda, mazkur ikki sulola bilan Temuriylar o‘zaro munosabatda bo‘lganlar. Oqqo‘yunlilar shahzodasi Sulton Xalil Sheroz hokimi (1471–1478) bo‘lgan davrda, 1471-yili Alisher Navoiyning “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” ko‘chirilgan. Xususan, Navoiy Sulton Ya’qub bilan shaxsiy aloqada bo‘lgan. Bu hukmdor davrida Navoiy she’rlaridan tashkil topgan “Sulton Ya’qub saylanmasi” 1481-yili Sherozda ko‘chirilgan. Ya’ni Oqqo‘yunlilar qo‘lyozma san’atining Alisher Navoiy asarlari bilan bog‘liq o‘rinlari avvaldan mavjud bo‘lgan.

Professor Lola Uluch bu bog‘lanishlarni, biz so‘z yuritayotgan va Oqqo‘yunlilar muhitida ko‘chirilgani ehtimoli bor bo‘lgan, Navoiyning “Terma devon” Oqqo‘yunlilar muhitida tuzilmagan taqdirda ham, majmua Navoiy she’riyatiga ilk munosabat namunasi sifatida ahamiyatini saqlab qolaverardi. Muhimi, kim tomonidan amalga oshirilganidan qat’i nazar, bu majmua “Xazoyin ul-maoniy”dan olib tuzilgan eng dastlabki (1501-yil) terma devon hamda Navoiy she’riyatiga zamondoshlari munosabatini yaqqol ko‘rsatadigan manba ekanligi bilan ham katta ahamiyatga egadir.

Albatta, 1471-yilda 30 yoshda bo‘lgan navqiron Alisher Navoiy bilan 1501-yildagi 60 yoshli shoir o‘rtasida katta farq bor. Oqqo‘yunlilar 30 yoshli Navoiy she’rlarini o‘g‘uzlashtirishga jazm qilishgandir. 1469-yildan muhrdor va 1472–1476-yillarda vazir lavozimida ishlagan va umuman, ushbu davrlardan boshlab davlat arbobi, Xuroson, Movarounnahr, Usmonlilar saltanati va butun turkiy dunyoga shuhrati yoyilgan ulug‘ shoirning she’rlari matnini o‘zgartirishga bu safar kotiblarning haddilari sig‘magan bo‘lishi ham mumkin.

“Terma devon”dan 30 yillarcha avvalgi davriga oid demoqda. Muhimi, mazkur qo‘lyozma majmua, Lola Uluch fikricha, Oqqo‘yunlilar muhitida tayyorlangan bo‘lishi ehtimoli mavjud. Balki ayni majmuagacha Oqqo‘yunlilar muhitida Navoiy she’rlari kiritilgan ikkita qo‘lyozma tayyorlangani ham buning isbotidir. Bular: “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” (1471-yil) va “Sulton Ya’qub saylanmasi” (1481-yil). “Terma devon” balki ana shu an’ana davomi sifatida 1501-yili yuzaga kelgandir. “Terma devon”dagi Navoiyning ayrim g‘azallari “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi kabi qisqartirilgan. Navoiyning asli 9 baytli g‘azallari qisqartirilib, 7 baytli shaklda yoki asli 7 bayt bo‘lgan g‘azallari qisqartirilib, 5-6 bayt ko‘rinishida taqdim etilganini kuzatish mumkin. Buning sababi hozircha bizga qorong‘i.

Alisher Navoiy o‘zi tartib bergan dastlabki devoni – “Badoye’ ul-bidoya” debochasida xalq ichida o‘zining ming-ikki ming baytdan ortiqroq she’rlari to‘plab ko‘chirilib tarqalganini, ya’ni ixlosmandlari tomonidan tuzilgan bunday to‘plamlar bir nechta bo‘lganini ta’kidlaydi: “...xaloyiq arosida ming bayt – ikki ming bayt ortug‘roq-o‘ksukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi”. Hijriy 870 (milodiy 1465–1466)-yilda Navoiy she’riyati ixlosmandlari tomonidan tuzilib, Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan “Ilk devon”dan besh yillar keyin, 1471-yili yangi bir to‘plam – “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”ning tartib berilgani Navoiyning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlaydi. 1501-yilda ko‘chirilishi tugallangan “Terma devon” ham ulug‘ shoir ijodiga ana shunday ehtiromning mahsulidir, ehtimol.

Biz so‘z yuritayotgan “Terma devon”ning nomlanishi ham shartli bo‘lib, navoiyshunoslikda “Xazoyin ul-maoniy” tuzilishi tugallangan 1498-yildan keyin undagi devonlardan (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye’ ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar”) olingan she’rlardan tarkib topgan majmualarga nisbatan qo‘llanadi. Marhum olim filologiya fanlari doktori Muhammadjon Hakimov fikricha, shartli tarzda nom olgan Navoiy “Terma devon”larida 1500 dan kamroq she’r keltirilgan. “Terma devon” 84 betdan iborat bo‘lib, unda 130 ta she’r keltirilgan. Lekin uning “Xazoyin ul-maoniy”dan keyin tuzilganligini inobatga olib, “Navoiyning 1501 yilgi “Terma devoni”, deb atadik. Mazkur sanani ta’kidlashdan maqsad – uni boshqa “Terma devon”lardan farqlash va Navoiyning eng dastlabki terma devonlaridan ekanligini ta’kidlashdir. Albatta, bunday nomlash ham shartli.

Biz 1501-yil sanasini bejiz eslamadik. Chunki aynan 1501-yilga kelib Oqqo‘yunlilar saltanati hukmronligi o‘z nihoyasiga yetayozgan edi.

Chig‘atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg‘on xizmati juda ulug‘dir. Bu kungi yangi o‘zbek adabiyoti va uning bugungi sodda shevasi, menimcha, o‘sha chig‘atoy shevasidan o‘zgamasdir.

Abdulhamid CHO‘LPON

Savollar ko‘p, taxminlar ham. Muhimi, Navoiy she’riyatiga oid 1501-yilgi “Terma devon”ning aniqlanishi natijasida navoiyshunoslik ilmi ulug‘ shoir yashagan davrga oid yana bir noyob qo‘lyozma manba bilan boyidi. Biz mazkur qo‘lyozma ustidagi izlanishlarni davom ettirib, uning faksimile nashri va tabdilini amalga oshirish niyatidamiz.

(Boshlanishi 1-sahifada)

“Saddi Iskandariy” dostonining bir bobi to‘liq adolat ta’rifiga bag‘ishlangan. Bunda shoir oldingi to‘rt dostonda aytilgan fikrlarni umumlashtirib, yaxlit konsepsiya shaklida bayon etishga kirishadi. Unga ko‘ra, adolat – jamiyatdagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi tushuncha bo‘lib, uni amalga oshirish eng avvalo, mamlakat hukmdori hamda tayinlangan rahbarlarning bevosita vazifasi hisoblanadi. Adolat – shunchaki dunyoviy hodisa emas, balki ilohiy missiya ekanini isbotlash uchun mutafakkir shoir Allohning go‘zal ismlarini misol keltiradi. Unga ko‘ra, Alloh taoloning mehribonligini bildiruvchi “Ar-Rahim”, o‘ta karamli ekanini bildiruvchi “Al-Karim” ismi bor. Boshqa ismlari ham shunday. Ammo adolatliligini bildiruvchi sifati “Al-Odil” (adolat qiluvchi) emas, balki “Al-Adl”(adolat)ning o‘zidir. Bundan kelib chiqadiki, adolat bilan ish qiluvchi podshoh Allohning “Al-Adl” ismining mazhari bo‘lib, u Xudoning eng yaqin do‘stiga aylanadi:

“ADL ILA OLAM YUZIN OBOD QIL...”

Ne asmokim, ul Haq sifotig‘adur,
Agar fikrating har bir otig‘adur.

Ne amreki bo‘lg‘ay sifat doxili,
Haq otidur ul amrning foili.

Karam fartidindur karim o‘lmog‘i,
Tarahhum ko‘pidin rahim o‘lmog‘i.

Vale oti asmoda odil emas,
O‘qur chog‘da el oni odil demas.

Adolatqa yetganda qilmish Xudo,
O‘z otini “Al-adl” birla ado.

Bu otig‘a ko‘prak uchun ehtimom,
Aning birla olamg‘a berdi nizom.

Ne shahkim, aning adl kirdoridur,
Desam, yo‘q ajabkim, Xudo yoridur. (“Saddi Iskandariy”, 20-bob.)

Podshoh – Xudoning yerdagi soyasi degan hikmat ham ayni shu haqiqat asosida shakllangan, deydi Navoiy. Ya’ni, zulm va zo‘ravonlik bilan hukumat yuritadigan zotlar ilohiy marhamatdan benasibdirlar. Aksincha, adolat bilan ish yurituvchi hukmdorda mabodo qandaydir salbiy xislatlari bo‘lsa hamki, qiyomat kuni kechiriladi. Hattoki majusiylik diniga e’tiqod qiluvchi sosoniy hukmdor Anushervon adolatli bo‘lganligi uchun oxiratda do‘zax azobidan qutulishi haqida bashorat qilingan. Anushervon odil zamonida tug‘ilganini “Men adolatli sulton zamonida tug‘ildim”, deya faxr etgan oxirzamon payg‘ambari(s.a.v.)dan rivoyat qilinadigan hadisga ko‘ra, mamlakatlar agar adolat bilan boshqarilsa, kofirlar yurti bo‘lsa hamki, obod va ma’mur bo‘ladi. Zulm va zo‘ravonlik bilan boshqariladigan mamlakatlar esa musulmonlar yurti bo‘lsa hamki, albatta, zavol topajak:

Yana ham hadisedurur bu sahih
Ki, aylabdur oni bayoni fasih:

“Qolur kufr aro qolsa obod mulk,
Bo‘lur zulm agar bo‘lsa barbod mulk”.

Alisher Navoiy aqidasiga ko‘ra, podshoh turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlarini himoya qilishi lozim. Uning siyosati odamlar orasidagi mol-mulk, ishlab chiqarish, huquq va majburiyatlar doirasidagi munosabatlarni tartibga solib, muvozanatni ta’minlashga xizmat qilmog‘i kerak. Birovga berilgan imtiyoz kimningdir manfaatini oyoqosti qilmasligi kerak. Ayni paytda, ijtimoiy faol bo‘lgan kishilarni rag‘batlantirib, ularda kelajakka ishonch tuyg‘usini mustahkamlash uchun qonun ustuvorligini ta’minlashi lozim. Mutafakkirning qat’iy ishonchiga ko‘ra, ikki holat – begunohlar jazolanadigan hamda aybdorlar jazoga tortilmaydigan mamlakatning inqiroziga sabab bo‘luvchi bosh omillar hisoblanadi.

Navoiy ushbu fikrlarini isbotlash maqsadida Sulton Mahmud G‘aznaviy hayotini ibrat sifatida keltiradi. Unga ko‘ra, Sulton Mahmud vafot etganidan so‘ng bir kuni valiahd o‘g‘li Mas’udning tushiga kiradi. Mas’ud undan shohlik davrida qilgan qaysi amali uchun jannat bog‘ida sayr qilib yurganini so‘raydi. Sulton Mahmud javob beradikim:

...Ul zamonkim jahondor edim,
Adolat qilur fikrida bor edim.

Hindustonni fath qilgandan keyin farmon berdimki, sipohiylar tinch aholiga hech qanday ziyon-zahmat yetkazishmasin. Farmon qanday bajarilayotganini ko‘rmoqchi bo‘lib, sayrga chiqdim. Bir o‘rmonni kezayotganimda, qashshoq hind qabilasiga duch keldim. Shu asnoda bir alamli faryodni eshitib, o‘sha tomonga ot qo‘ydim. Ko‘rdimki, qo‘shinimdan bir askar yog‘och-u qamishdan yasalgan bir bechorahol kampirning uyiga bostirib kirib, uyidan necha shox ayirib, bir qop somon hamda kampirning birdan bir boyligi bo‘lgan yashil sopol kosani tortib olib chiqayotgan ekan. Zolim askar olgan yog‘ochlar, somon to‘rvasi va sopol kosani kampirga qaytarib, kulbasini tuzattirdim. Askarni boshqalarga ibrat-saboq bo‘lishi uchun o‘sha kampirning uyi oldida dorga osishga buyurdim. Foniy dunyoni tark qilganimda g‘aybdan nido keldikim, jami gunohlaring bir mushtipar kampirga qilgan adolating tufayli kechirildi va qilgan har bir riyosiz amaling uchun hadsiz-hisobsiz mukofot berildi.

Sen ham, deydi Mahmud o‘g‘liga, narigi dunyoda gumrohlar qatoriga qo‘shilmasdan, abadiy farog‘atda yashashni istasang, bu dunyoda iloji boricha yaxshilik qilgin, adolatni hayotingning mazmuni deb bil.

Bu tushdan to‘g‘ri saboq chiqargan Mas’ud umrining oxiriga qadar adolat bilan hukmronlik qiladi.

Qissadan hissa chiqarish asnosida ulug‘ shoir yuqoridagi fikrlariga qo‘shimcha ravishda yangi-yangi xulosa va umumlashmalarini taqdim qiladi. Unga ko‘ra, mamlakat farovonligi, yurt ravnaqi va osoyishtaligi aynan jamiyatda adolatning barqarorligiga bog‘liq. Adolat tufayli xalqning hukumatga ishonchi ortib, sadoqat va birdamlik tuyg‘usi kuchayadi. Sipohiylar ham fidoyilik bilan mamlakatni qo‘riqlaydi. Boshqa mamlakat raiyati ham odil podshohni yaxshi ko‘rib, uning haqiga duolar qilishadi. Jinoyatga jazo muqarrar bo‘lgan muhitda o‘z-o‘zidan o‘g‘rilik, qotillik, zo‘ravonlik, qaroqchilik kabi illatlar kamayadi. Zulmning katta-kichigi bo‘lmaydi. Ayrim hollarda arzimas bir jinoyatga qattiq jazo chorasini qo‘llash siyosati ham adolat va insof, xolislik va haqiqat tantanasiga ko‘mak beradi. Bu hol esa, hukmdorning ham dunyo va ham oxiratda saodatli umr kechirib, yaxshi nom qoldirishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugun yurtimizda adolatli jamiyat barpo etish va inson qadrini oliy qadriyat sifatida belgilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hazrat Alisher Navoiyning g‘oya va qarashlari, ezgu orzulari bilan uyg‘un va hamohangdir.

Olimjon DAVLATOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori

2024-yil 9-fevral
№7(7)

“NAVOIY YOMON BO‘LSA, SEN YAXSHI BO‘L...”



Abdulla A’ZAM,
akademik,
O‘zbekiston fan arbobi

(Boshlanishi 1-sahifada)

Lug‘atlarga murojaat etaylik. 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “navo” so‘zining beshta ma’nosi berilgan: birinchi o‘rinda kuy, ohang, qo‘shiq; so‘ng: zavq, maqom nomi, nola va me’morchilikda qo‘llanadigan bezak. Ko‘rinib turibdiki, bu ma’nolarning birortasi ham bayt mazmuniga muvofiq emas. P.Shamsiyev va S.Ibrohimovning “Navoiy asarlari lug‘ati”da ham “navo” so‘zining beshta ma’nosi berilgan: 1) ovoz, muzika, sado; 2) kuy, ohang; 3) kuy nomi; 4) boylik; 5) nasib, bahra. Dastlabki uch ma’no bir-biriga yaqin va bayt mazmuniga tushmaydi. Baytdagi “navo” boylik deb tushunilsa ham ma’no chiqmaydi, faqat so‘nggi ma’no ancha yaqin.

Eronning “Dehxudo” nashriyot uyi tomonidan nashr etilgan mashhur “Fors tili lug‘atnoma”sida “navo” so‘zining birinchi ma’nosi sifatida “tirikchilik, kun ko‘rish vositasi” (“vasoyili zindagi”) ma’nosi berilgan. Hech shubhasiz, yuqoridagi baytda xuddi shu ma’no o‘rinli: hayotdan noumid bo‘lgan odam uchun bir burda non tutadigan ahli davlat, saxovatpesha topilishidan umid qolmadi.

Naqadar achchiq, benavo muhit.

Yana bir misol:

Navoiy ohi navosozi shoh Abulg‘oziy
Sipehr martaba Sulton Husayn Boyqaro.

(Ravshanki, shoir kuylovchi emas, dodga yetuvchi Sulton ohimga chora qiladi) demoqda.

Albatta, “navo” so‘zi mumtoz adabiyotda kuy, qo‘shiq ma’nosida juda ko‘p uchraydi:

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘lubtur.

Ayniqsa, bulbul so‘zi bilan birga kelganda navo kuyni bildirishi tabiiy:

Navoiy erur bulbuling, lekin ey gul,
Unutturdi hajring xazoni navosin.

* * *

Dam urma bu chamanda, Navoiyki, bir gule
Bilmas zag‘an fig‘onini bulbul navosidin.

“Navo” so‘zi bir baytda har ikki ma’noda kelib, tajnis san’ati hosil qilishi mumkin:

Dedim “Ey gulrux, Navoiyg‘a navo yetkur.
Dedi: “Kim ko‘rubtur bo‘lganin bulbul
navog‘a ehtiyoj?!”

(Ey gulrux, Navoiy dardiga navo (chora) qil desam, u “Sen nazmning bulbulisan-ku, bulbul navo (kuy)ga muhtoj bo‘lganini kim ko‘rgan?” deya gapni boshqa yoqqa burdi.)

Mana bu baytdagi “navo” so‘zining ikki ma’noligi tajnisga nisbatan yuksakroq (murakkabroq) iyhom san’atini hosil qilgan:

Ey, navbahori orazing
subhiga jonparvar havo,
Andin gul-u bulbul topib yuz
barg birla ming navo.

Ikkinchi misradagi barg va navo so‘zlarining yuzadagi ma’nosi: gulning bargi va bulbul navosi; shoirning asil niyatini ifoda etuvchi ma’nosi: barg – hosil, samara; navo – dardga chora, ya’ni muddaoga yetish.

Darvoqe, yuqoridagi “Ishq ahli aro navo bo‘lubtur” misrasiga ham iyhom xos.

Navoiy she’rlarida “navo” so‘zining bo‘lishsizlik shakli bo‘lmish benavo-navosiz 99 foiz holda kuy-qo‘shiqqa aloqador emas. Bir foizga mansub misol:

Havoyi gulshani quds et,
Navoiykim, xush ermastur
Zag‘anlar birla bu gulshanda
bo‘lmoq benavo asr-u,

(She’riyatning pok gulshanini o‘zingga muqaddas deb bilgan ekansan, ey Navoiy, undagi qarg‘alar ichida sen benavo bo‘lishing – kuylashni ularga berib qo‘yishing yaxshi ish emas).

Bunday baytlar istisnodir. Mana bu misolni olaylik:

Navoiy, benavoliq shevasin berma ilikdinkim,
Navo har kimki istabdur, topibdur benavolig‘din.

Bu baytda uch o‘rinda kelayotgan “navo” o‘zakli so‘zlarning kuy, qo‘shiqqa mutlaqo aloqasi yo‘q: (Ey Navoiy, faqirlik tarzini qo‘ldan chiqarma, zotan kimki tom ma’nodagi navo – Yor vasliga yetishni istagan bo‘lsa, faqat faqirlik bilan erishgan). (Vallohu a’lam.)

Balog‘at ilmiga ko‘ra, baytning boshida – taxallusda ham “navo” kuy emas.

Bu bayt munosabati bilan ta’kidlash o‘rinli: “navo” so‘zi “bulbul” bilan birga kelganda kuyni bildirgani kabi, “benavo” so‘zi “gado” bilan kelganda albatta “bechora, hech vaqosi yo‘q” ma’nosi bilan qovushadi:


Gadolig‘ etti Navoiy aning visolini, lek
Shah etsa or, ne tong, benavo gadolardin?!

Navoiy ma’shuqasidan visol tilagan edi, u xuddi shoh isqirt gadodan or qilganiday munosabat bildirdi, husn saltanatining shohi-da.

Yana bir shu mazmundagi bayt:

Navoiy benavoliq birla jon bersa ajab ermas
Kim ul oromijon ogoh emas bu benavosidin.

Hozirgacha hech kim kuysiz qolsa, jon bergan emas.



2. TAXALLUS

Navoiy o‘ziga taxallus tanlaganda “navo” so‘zining qaysi ma’nosini nazarda tutgan? Bizningcha, bunday savol noo‘rin – har ikki ma’noni (bu akademik A.Rustamov fikri). Ming afsuski, “Navoiy” taxallusining ma’nosini kuy, musiqa bilan bog‘lash keng tarqalgan. Aminmizki, bo‘lg‘usi buyuk mutaffakkir o‘ziga taxallus tanlaganda, bu so‘zning har ikki ma’nosini yaxshi bilgan va inobatga olgan, shu bilan birga uning “madadkor, chorasoz” ma’nosini asosiy deb olganining ehtimoli yuqori. Ya’ni: navoiy-navoyi, navobaxsh, navosoz – 1) madadkor, yordamga qo‘l tutuvchi, g‘amxo‘r; 2) kuylovchi.

“Saddi Iskandariy” dostonining Darveshaliga bag‘ishlangan bobidagi mana bu bayt mashhur:

Navosiz ulusning navobaxshi bo‘l,
Navoiy yomon bo‘lsa, sen yaxshi bo‘l.

Navoiyning ukasi Darveshali Balxda hokim bo‘lgan, ammo akasiga ko‘p tashvishlar keltirgan. Xususan, yurt obodligi bilan shug‘ullanish o‘rniga siyosiy o‘yinlarga berilib, akasini norozi qilgan. Hatto Sulton Husayn uni qatl etishiga bir baxya qolgan.

Navoiy ukasiga butun bob davomida qattiq tanbeh berib, otalarcha g‘amxo‘rlik bilan nasihat qilar ekan, qalbidagi toshday og‘ir dard bilan yuqoridagi baytni bitgan:

(Qiynalib yashayotgan xalqqa navobaxsh-madadkor bo‘l. Agar Navoiy bunday yumushni yaxshi bajarmagan bo‘lsa, sen undan yaxshiroq bo‘l).

Bu baytdagi navosiz va navobaxsh so‘zlarini kuy bilan bog‘lash g‘irt bema’nilikdir.

Navoiy g‘azallarini o‘qiganda taxallusni shunchaki an’ana deb o‘tib ketmaslik kerak, chunki baytda so‘z taxallusdan tashqari turdosh ot ma’nosida ham kelishi (taxlis san’ati), ustiga-ustak, ayni bir paytda qo‘llovchi va kuylovchi ma’nolarini bildirishi ham istisno emaski, natijada iyhom san’ati yuz berishi mumkin:

Navoiy benavolig‘ birla doim may ichar, bir kun
Navo naqshini davron mutribi
bazmida cholg‘ay deb.

Hatto:

Benavodur Navoiy ollingda,
Tong emas bo‘lsa benavo muhtoj –

baytida (mazmunan munojot) uch qavatli iyhom:

1) taxallus: huzuringda Navoiy bir gado-dek, bechoradirki, muhtoj bo‘ladi-da;

2) navosoz: oldingda hatto bulbuldek kuylaydiganlar ham sukutga cho‘mib, bir bechora tarzida sening iltifotingga muhtoj;

3) homiy: sening oldingda hatto boy-u badavlatlar ham bechoraki, ular sening lutfingga muhtojligidan ajablanma. (Vallohu a’lam).

Daho shoir taxallusini “Navoyi” deguvchi adabiyotshunoslar yo‘q emas. Bunga mutlaqo qo‘shilib bo‘lmaydi. Birinchidan, uning she’rlarida deyarli hamma o‘rinda qolipidagi so‘z, ya’ni “Navoiy” vaznga tushadi, navoyi esa qolipida bo‘lib, ayrim hollardagina uchraydi. (Mumtoz adabiyotda vazn taqozosi bilan taxallus nonormativ shaklda qo‘llanishi keng tarqalgan: Muqimiy–Muqimi–Muqim–Muqiym, Uvaysiy–Uvaysi–Vaysiy va hokazo. Shuning uchun ayrim o‘rinlarda taxallus Navoyi shaklida kelishi asil taxallus Navoiy emasligiga dalil bo‘la olmaydi.) Ikkinchidan, Nizomiy, Nasimiy, Jomiy, Hiloliy kabi yuzlab misol ko‘rsatib turibdiki, taxallusda so‘nggi “i” unlisi cho‘ziq bo‘lishi lozim, hozirgi alifboda cho‘ziqlik aynan “-iy” tarzida ifodalanadi. Uchinchidan, navoyi, gadoyi, vidoyi so‘zlari lug‘atda bor, ammo vafoyi, muammoyi, halvoyi, naimi, safoyi, baqoyi, fanoyi, zeboyi, ziyoyi so‘zlari mavjud emas, bu so‘zlarga o‘zakdosh, “Majolis un-nafois”da zikr etilgan taxalluslar Vafoiy, Muammoiy, Halvoiy, Naimiy va hokazo ekanligi shubhasiz. To‘rtinchidan, “Navoiy emas”, “Navoyi” bo‘lishi kerak, degan prinsip o‘zagi bir bo‘g‘inli taxalluslarga qo‘llansa, g‘alat hosil bo‘ladi: Jomi, Doyi, G‘ozi, Xoni, Zavqi, Rozi va hokazo. Beshinchidan, eng muhimi, atoyi, gadoyi, fidoyi, binoyi kabi shakl so‘zga jo‘nlik ma’no ottenogini berib, taxalluslarga xos bo‘lishi lozim patetikani, shoirona injalikni yo‘qqa chiqaradi. Navoiy emas, Navoyi deguvchilar aynan mana shuni e’tiborda tutayotgan bo‘lsalar, buni ochiq bayon qilishlari lozim.

Jild-jild she’rlar yozgan bu buyuk turk shoirining qudratini, san’atini, tilini tadqiq etmak, tekshirmak bir vazifa ham bir sharafdir.

Ismoil HIKMAT

3. NAVOIYNING NAVOIYLIGI

Navoiyning Darveshaliga murojaatidagi achchiq ta’na ostidagi haqiqat, ya’ni Navoiyning buyuk navobaxshligi ukasiga ham, butun zamondoshlariga ham yaxshi ma’lum bo‘lgan. Manbalarda bu borada shahodat ko‘p.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da yozadi: “Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy (quvvatlovchi – bu ham navoiy so‘zining sinonimi) ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. ...Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoq muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘ay”.

Xondamir “Makorim ul-axloq” risolasida yozadi:

Ushbu so‘zlarni yozuvchi (ya’ni Xondamir)-ning fikricha, ul hazratning xazinasida biror yili ham zakot to‘lashga vojib bo‘ladigan darajadagi oltin yig‘ilmas edi. Chunki mulozimlari qo‘liga (Navoiyning hisobxonasiga) kelib tushgan har qanday daromad tez orada turli tabaqa va guruhlar vakillari bo‘lgan kishilarga in’om sifatida sarflanardi yoki maskanlar qurish ishiga xayriya qilinar edi.

She’riy misra (forschadan tabdil): Taqvodorlar qo‘lida turmas mol-dunyo.

Har doim ezgulik va saxovat dengizi bo‘lgan bu Amir (ya’ni Navoiy) bilan uchrashishga muyassar bo‘lgan ulug‘lar muhtoj kishilarning nomlarini aytardilar, ul hazrat ham (muhtojlarning) ehtiyoji darajasidan kelib chiqqan holda o‘z in’om dasturxonidan (ya’ni mablag‘idan) ularni bahramand etardilar.

Xondamir Navoiy bilan uchrashganlarning iltimosiga muvofiq qilingan xayriya haqida so‘zlamoqda. O‘zbekiston FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti fondida “Navoiy albomi”, deb ataladigan manba saqlanadi. Unda Abdurahmon Jomiy, Xo‘ja Ubaydulloh Ahror, Muhammad Tabodgoniy, mashhur shayx Alouddin Attorning nevarasi Muhammad Attor va boshqa jami 16 kishining 600 ga yaqin maktubi o‘rin olgan. Xatlarning mutlaq ko‘pchiligi, xususan, Jomiyning 300 dan ziyod xati Navoiyga atalgan bo‘lib, ularda asosan qaysidir muhtoj kishiga yordam ko‘rsatish so‘ralgan. Navoiy bunday iltimoslarning birortasini ham e’tiborsiz qoldirmagan, aksincha, so‘ralganidan ziyoda qilib bajargan. Bu borada Navoiy amal qilgan prinsip mana bu qit’ada bayon etilgan:

Debon bergan kishi erdur, valekin
Demay berganga erlik bil musallam.

Ne deb, ne bersa bilgil oni xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

(Xayriya qilaman deb, qilganni inson de, ammo so‘rashini kutib o‘tirmay xayriya qilganni a’loroq bil. Shuncha beraman, deya o‘shancha bergan u qadar saxiy emas, umidvor qilib bermaganni esa umuman inson sanama.)

Navoiyning kichik zamondoshi Faxriy Hirotiy “Latoyifnoma” asarida yozadi: “Har kuni 75000 dinor amir xazinasiga tushar edi va 15 000 chiqim bo‘lar edi”. Bu ma’lumotni shunday tushunish kerak: 75000 dinordan 15 000 Navoiyning kundalik ehtiyojlari va xayr-ehson uchun sarflangan, 60 000 esa qurilish, mudarris, imomlarga maosh, tolibi ilmlarga nafaqa va boshqa ishlarga yo‘naltirilgan. Chunki Hirotiy shunday davom etgan: “Odamlarga har yili mingta sarpo tayinladi va 370 ta xayrli imorat qurdi”.

Bir dinor og‘irligi bir misqol – 2,5 grammdan 5,5 grammgacha oltin, ko‘pincha kumush tanga. Agar bir gramm oliy probali kumush hozirgi birjada 0,88 dollar ekanligi hisobga olib, 14-asrdagi bir dinordagi kumush miqdorini 4 gramm desak, Navoiyning bir kunlik daromadi 140 ming dollardan oshadi. Agar Faxri Hirotiy oltin dinorni nazarda tutgan bo‘lsa, raqam 10 millionni tashkil etadi.

Bu daromadning deyarli hammasi xayriyaga sarflangan. Bu xususda Navoiyning o‘zi “Vaqfiya”da yozadi:

Chun ul hazrat hukmi jihatidin va taklifi sababidin maosh mazra’i yobis qolmasun deb, biror nima ziroatqa ishtig‘ol ko‘rguzdum. Chun ul ishimda qila olg‘uncha shariat joniбi mar’i va insof tarafi malhuz erdi, Tengri inoyatidin ko‘p mahsullar hosil va g‘animatlar vosil bo‘la kirishti. Bu jumladin o‘z maoshimg‘a soyir avomdin birining maoshi o‘tguncha issiq-sovuq daf’i uchun bir turma to‘n dag‘i mung‘a munosib yemakka qone’ bo‘lub, qolg‘onning ba’zisin ul hazratning mulozamati maslahati uchun, kelish-borishg‘a va navkar va mutaalliqlar ulufasig‘a va cherik yarog‘ig‘a sarf qildim va ba’zini aning saboti davlati uchun duo va davomi saltanati uchun toat qilur mustahiqlarg‘akim – yetkurdum. Va ba’zinikim, jami’ ma’unot va borcha taklifotdin ortti, biqoi xayr bino qildim...

(Sulton Husayn hukmi va taklifi bilan menga ajratilgan yerlar bo‘sh qolmasin deb, dehqonchilik ishlarini tashkil etdim. Bu ishlar shariat buyurganiga muvofiq, insof bilan qilingani uchun Tengri inoyati bilan mo‘l hosil olinar va katta daromad keltirar edi. U daromaddan o‘zimga oddiy xalqning maoshicha olib, issiq-sovuqdan saqlanish uchun bir jundan to‘qilgan to‘n va shunga yarasha yemakka sarflash bilan qanoatlanib, qolganini Sulton Husayn maslahati bilan Hirotga kelib-ketuvchilar xarajatlariga, navkar va ularga xizmat qiluvchilarning maoshiga va qurol-aslahasiga sarf qildim, bir qismini davlat barqaror va saltanat bardavom bo‘lishini tilab duo qilishsin, degan niyatda muhtojlarga yetkazdim. Tirikchiligim va yuqorida sanalganlardan ortganining hammasini xayriya uchun xizmat qiladigan bino va inshootlar qurishga sarfladim.)

Navoiy qurgan bino va inshootlar bir necha tarixiy asarlarda sanab o‘tilganki, har qanday abror ham hayratga tushadi. Uning homiyligida ijod qilgan olim, adib va san’atkorlar soni yuzdan oshadi, tolibi ilmlarning esa sanog‘i yo‘q.

Navoiyning xayriya ishlari sanalsa, qalin kitob bo‘ladi. Shuning uchun yana bir chizgi bilan cheklanamiz. O‘sha davrda Hirot bilan Mashhad yer yuzidagi eng yirik shaharlardan bo‘lgan. Bu ikki shaharda har kuni Navoiy hisobidan jonliqlar so‘yilib, taomlar tayyorlanib, beva-bechoralarga dasturxon yozilgan.

Qisqa qilib aytganda, Navoiy bugungi AQSH dollariga chaqilsa, millionlab, hatto milliardlab topganining deyarli hammasini xayriyaga sarflagan. Butun insoniyat tarixida Navoiydek saxovat sohibi, “navosiz ulusning navobaxshi” bo‘lgani ma’lum emas.

Shunday ekan, buyuk bobomiz taxallusining ma’nosini musiqa bilangina bog‘lash adolatdan emas, bu ma’noga ko‘proq urg‘u berish esa noto‘g‘ridir. Misli ummon sohilida yashab, uning beqiyos ne’matlaridan foydalanish o‘rniga sohildagi chig‘anoqlarni terish bilan cheklanganday.

Qo‘shimcha. Ko‘pincha “Ma’naviyat” deganda nimani tushunasiz, degan savol qo‘yildi. Bu falsafiy tushuncha bo‘lgani uchun, yuz kishi yuz xil javob berishi mumkin va bu tabiiy hol. Fikrimizcha, ma’naviyat – bu Alisher Navoiydan navobaxshlik ibratini olishdir.

TABDIL

SAN’ATKORLIK QUDRATI

Husayn Boyqaro zamoni shoirlarining hammasini turkcha yozishg‘a savq va tashviq qilardi. Hammalariga bir qancha hadyalar, mukofotlar berardi. Navoiy esa butun shoirlarga boshliq bir san’at ustozi bo‘lg‘ondir.

Jild-jild she’rlar yozgan bu buyuk turk shoirining qudratini, san’atini, tilini tadqiq etmak, tekshirmak bir vazifa ham bir sharafdir. Butun bu tadqiqlar orasida biz qisqa bir suratda uning asarlaridagi lirizmni ko‘rsatmakchimiz. Huzur va alamining, ishq va nafratining uyg‘otg‘on hayajonlarining biron she’r holida tilidan to‘kilishiga shohid bo‘lmoq, albatta, zavqli bir narsadir. Faqat buyuk shoirlarimiz, san’atkorlarimiz bordirkim, bizga biror inji (marvarid) qadar tamiz va qimmatli asarlar berganlari holda ruhimizda eng kichik bir hayajonni uyg‘otadig‘on she’rni bermaydilar. Butun adabiyotimiz tadqiq etilsa, bir qancha san’atkor shoir ko‘rsatmak mumkin bo‘lg‘oni holda qancha nafar Fuzuliy ko‘rmak mumkindir? Albatta, Fuzuliyni boshqa shoirlarimizdan ustun qilg‘an ma’ziyat uning san’ati emas, balki xassosiyati(sezuvchanligi)dir. Ishqiy samimiyati, hijroni, alami, qisqacha ko‘z yoshlaridir.

Demak, san’atkorlig‘ida hech shubha bo‘lmaydig‘on Navoiyning asarlarida bu fitrat sirini ko‘rmak istaymiz. “Xamsa”lari, masnaviylari, qasidalar ila hatto “Mezon ul-avzon”lari ila u san’atkorlik qudratini ko‘rsatgandir. Porloq tashbehlari, mumtoz istioralari, latif xayollari yuzasidan unga zamonining eng buyuk shoirlari taqlid qiling‘onlar.

Sharq adabiyotida lirizmning yashag‘oni va tadbiq bo‘ling‘on eng jonli soha “g‘azal”lardir.

Navoiyning asarlarini ham tadqiq etsak, bir necha g‘azallar ko‘ramiz.

To‘rtta buyuk devonig‘a bolalig‘idan beri hislarining, hayajonlarining tarjimonlari bo‘lg‘on g‘azallarini qayd etgan Navoiy, shubha yo‘qki, san’atkor bo‘lg‘oni qadarda lirik bir shoirdir.

Yozg‘on g‘azallarining hammasi bir quvvatda, bir xosiyatda bo‘lmag‘onlig‘i va bo‘lmaslig‘i ham oshkoradurur. Faqat ichida atrofli bir qalbning, yaralik bir yurakning, hijronli bir siyna-ko‘ksining yashag‘on juda jonli, juda hazin she’rlari bordir.

Lablaringdan garchi qon yutmoq damodamdir menga,
Bir dame jomi visoling yiqsa, ne g‘amdur menga –

deb inglagan shoir lirikdir, hayajonlidir, yuragida ishlagan va qonag‘an yashirin bir yarasi, bir ishqi, bir hijroni bordir. Aytsak bo‘ladiki, turk adabiyotining joni, qalbi bo‘lg‘on Fuzuliy ul yaraliq faryodlarini chiqarmoq va dodlamoq uchun eng jonli, eng go‘zal, eng qalbiy namunalarni Navoiyda ham ko‘rgandir…

Navoiyning:

Istamonkim ishq mendin o‘zgani qilg‘ay asir,
Hech kishiga bo‘lmasun, yo rab, menga bo‘lg‘on balo, –

faryodi o‘z ruhig‘a, o‘z qanoatig‘a, sabr-u tavakkaliga muvofiq bo‘lg‘on Fuzuliyda:

Benimdek hech kim zor-u parishon o‘lmasun, yo rab,
Asiri dardi ishq-u dog‘i hijron o‘lmasun, yo rab –

demaydimi?

Fuzuliy Navoiyning bunday hijronli qalbi va lirik g‘azallaridan ma’no, ruh va ta’sir olg‘oni kabi shakl ham olg‘on va bir muncha g‘azallarig‘a, vaznlarig‘a, qofiyalari bilan birga nazira aytgandir. Bu Fuzuliyning Navoiyni juda sevganligi va taqdir etganligini ko‘rsatadir...

Xullas, Navoiy yolg‘iz o‘zi yashag‘on asrining o‘z atrofig‘a to‘plag‘on shoirlar ustlarida emas, balki butun o‘zidan keyin kelgan buyuk turk san’atkor shoirlarining ustidan ham kerak san’at, kerak hassosiyat va lirizm e’tibori bilan katta ta’sir qilg‘on buyuk bir turk shoiridir.

Ismoil HIKMAT,
“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali,
1928-yil, 8-son asosida Saodat Fayziyeva nashrga tayyorladi.

BOBUR — NAVOIYSHUNOS

(Boshlanishi 1-sahifada)

Ikkinchidan, Bobur hijriy 911 (milodiy 1506-yil) Hirotga Sulton Husayn Mirzoning da'vati bilan borganida aynan hazrat Alisher Navoiyning "Unsiya" nomli uyida 20 kun yashaydi. U buni Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzoning qo'nalg'alarida qolmagan holda maxsus ravishda so'rab oladi. Mana shu kunlarda u Navoiyning deyarli barcha asarlari bilan tanishadi, u zot Hirotda qurdirgan barcha binolarni borib ko'radi. Shu orada Navoiy devonlaridan o'zi uchun terma devon tuzdirib oladi va uni bir umr o'zi bilan olib yuradi.

Bobur aynan shu voqealarni "Vaqoye"da bayon etar ekan, Sulton Husayn Mirzo umarosi qatorida Navoiyni ham birinchilar qatori zikr etadi va muhim ma'lumotlar keltiradi. Keyingi sahifalarda ham Alisher Navoiy turli voqealar munosabati bilan eslanadi.

Bobur yozadi: "...Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar..."

Bu o'rinda Husayn Boyqaroga munosabati va unga bog'liqligi nuqtai nazaridan Navoiy eslanayotgan bo'lsa-da, Bobur juda muhim jihatga diqqatni qaratmoqda. Ya'ni podshohning har bir umarosi yoki begi uning "musohibi" (suhbatdoshi) bo'lolmasligi va Navoiy aynan shunday yaqin ekanligi, ularning bu yaqinligi bolalikdan boshlanganini uqtirmoqda.

Shundan so'ng, Bobur yana juda qisqa va asosli mulohazani aytadi: "Xususiyat bisyor ekandur".

E'tibor bering, Navoiy va Sulton Husayn ko'p jihatdan bir fikrdagi, o'xshashliklari bisyor do'st ekan. Aynan shunday to'xtamni hech bir tarixchi aytmagan edi. Yoki yana, tarixiy asarlarning aksarida Navoiy juda maqtalsa-da, undagi ikki xususiyat – nozik mijozligiga va tez ranjishiga maxsus urg'u berilardi. Bobur ana shu jihatlarga ham nuktadonlik bilan javob topadi. Uning ta'kidlashicha:


"Alisherbekning mijozi nozukluk bilan mashhurdir. El nazokatini davlatining g'ururidin tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur..."

Talqinga ko'ra, xalq Navoiy tabiatidagi nozik mijozlik (nozik his-tuyg'ular, suhbatdosh va do'stni chertib-chertib tanlash, nafis va go'zal narsalarni suyush, tavoze', ozoda va sarishtalik kabi) xususiyatini o'ta davlatmand va yuqori mansabga ega bo'lgani uchun g'urur-kibrga berilgan, deya tasavvur qilardi. Yo'q, aslo unday emas ekan. Bunday sifat u zotda tug'madir. Chunki Samarqandda moddiy qiyinchilik bilan kechgan to'rt yil davomida ham xuddi shunday "nozuk mijoz ekandur".

Tarixchilardan na Mirxond, na Xondamir, hatto keyinchalik Vosifiy va boshqalar ham aynan Navoiy shaxsiyatidagi ajib jihatlarni Boburchalik bu tarzda nozik kashf etib, bayon qilmagan edi. Umuman, Boburning Navoiyga munosabati, qarashlari va talqini boshqalarnikidan realligi hamda keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Bu kabi jihatlar haqida va umuman Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur aloqasi, asarlaridagi o'xshashliklar, ayniqsa, Boburning Navoiy haqidagi qarashlari borasida avval ham ilmda to'xtanilgan. Jumladan, V.Bartold, Y.Bertels. A.Semyonov, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, A.Hayitmetov, B.Ahmedov, A.Qayumov, H.Qudratullayev, S.Hasanov, Sh.Sirojiddinov, V.Rahmonov, A.A'zamov kabi olimlarning ayrim ishlarini sanash mumkin.

Biz quyida yana bir masalaga e'tibor qaratmoqchimiz. Ya'ni Bobur asarlarida Navoiyning nechta va qaysi she'rlari kelgan?



"Vaqoye'"ning hijriy 905 (milodiy 1499-1500) yil voqealarida Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonidagi 385-g'azaldan bayt keltirilgan (bu g'azal keyinchalik Navoiy tomonidan musamman ham qilingan):

Ne borurg'a quvvatim bor, ne turarg'a toqatim,
Bizni bu holatqa sen qilding giriftor, ey ko'ngul.

Bobur "Devon"idagi bir qit'a esa Navoiyga tazmin.

Eyki, debsen lutf etib, lutfi itobomuz ila:
"Ko'nglung istar yorlar birla
hamisha shod bo'l!"
Mendinu kimdin yana bordur niqori xotiring?
"Mendinu kimdinki ko'nglung
istamas, ozod bo'l!"

Mazkur qit'aning 2 va 4-misralari "G'aroyib-us-sig'ar" devonidagi 283-g'azalning matla'sidir.

Yana, Bobur devonining ayrim qo'lyozmalarida Navoiyning bir g'azali yanglish ravishda Boburning ruboiysi sifatida keltiriladi. "Ko'rgali husnungni zoru mubtalo bo'ldum sanga", deya boshlanuvchi mashhur g'azalning dastlabki ikki bayti ("G'aroyib-us-sig'ar", 16-g'azal). Bobur devonining Parij, London (22b) va Haydarobod (23b) nusxalarida Boburning she'rlari orasida ko'chirilgan.

Boburning "Aruz risolasi" sahifalarida ham Alisher Navoiyning lirik she'rlaridan ko'plab misollar keltirilgani ma'lum. Ularning adadi va aynan qaysi devonlardan ekanligi haqida biroz to'xtalsak. Mazkur asarda Sharq mumtoz adabiyotining o'nlab vakillari she'riy ijodidan ko'plab namunalar beriladi. Ularning orasida eng ko'p Alisher Navoiy asarlaridir. Keyin Amir Xusrav, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlari keladi. Shu bilan birga, risoladagi aksar she'rlarning muallifi ko'rsatilmaydi va ana shularning katta qismi Boburning o'z qalamiga mansub asarlardir.

Navoiy asarlari esa, "Aruz risolasi"ning o'ndan ortiq sahifalarida uchraydi. Ular ko'proq baytlar shaklida beriladi (faqat, uch g'azal to'liq). Bobur ularni aruz vaznining turli bahrlarida ijod qilingan she'rlar tarzida misol keltiradi. Masalan, "Navodir ush-shabob" tarkibidagi 339-g'azal matla'sini 2 vazn va bir taqte' shaklida beradi (67b varaq). Shuningdek, faqat lirik janrdagi g'azal va ruboiylardan namuna keltirilgani holda bir o'rinda "Hayrat ul-abror" dostonining 13-bobidan ham parcha berilgan (165b varaq).

Bobur boshqa shoirlar kabi Navoiyning har bir bayti yoniga uning muallifini qayd etadi yoki ketma-ket kelsa "va lahu" (yana o'sha) iborasini qo'llaydi.


Shu tariqa, Bobur Navoiyning lirik asarlaridan 214 ta she'riy parcha keltirganiga guvoh bo'lamiz. Umumhisoblaganda esa, jami 215 ta she'r Bobur tarafidan "Aruz risolasi"ga Alisher Navoiyniki ekanligi ta'kidlab kiritilgan. Faqat bir o'rinda "Navoiy" nomi ko'rsatilmagan bayt bor (58a varaq; "Navodir ush-shabob"dagi 199-g'azal matla'si).

Mazkur she'riy misollarni "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlar matni bilan qiyoslaganimizda shunday manzara namoyon bo'ladi:

"G'aroyib us-sig'ar" dan 88 ta she'riy namuna;
"Navodir ush-shabob" dan 38 ta she'riy namuna;
"Badoye' ul-vasat" dan 26 ta she'riy namuna;
"Favoyid ul-kibar" dan 24 ta she'riy namuna.

Qolgan 37 ta she'r (bayt va ruboiylar) esa "Xazoyin ul-maoniy" tarkibida yo'q asarlardir.

Albatta, ularning ham aynan Alisher Navoiyniki ekanligiga hech bir shubha yo'q. Zeroki, eng asosiy dalil Bobur ularni Navoiyniki, deya keltirganidir. Inchunin, aynan Hirotga kelganida Navoiyning uyida yashaganligi, ulug' shoir ijodiyotini chuqur va atroflicha bilishi, Navoiy devonlaridan o'zi uchun terma devon ham tuzdirib olgani haqida "Boburnoma" sahifalaridan bizga ma'lumligini yuqorida esladik. Qolaversa, "Xazoyin ul-maoniy" tarkibiga kirmay qolgan Navoiyning boshqa lirik asarlari borligi haqida adabiyotshunoslikda ko'pdan beri fikrlar bildirib kelinmoqda (bu haqda H.Sulaymon, F.Sulaymonova, A.Abdug'afurov, O.Jo'raboyev va boshqalarning tadqiqlari bor). Mazkur 37 adad she'r namunasi ham ana shu fikrlarning asosli ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.





Otabek JO'RABOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bunga sabab sifatida Bobur qo'lida Navoiy devonlarining hanuz fanga ma'lum bo'lmagan nodir nusxalari bo'lganini ta'kidlasak, xato bo'lmas. Masalan,

Tilagim sening huzuring,
talabim sening jamoling,
Necha kun tirikligimdin
g'arazim sening visoling –

deya boshlanuvchi g'azal ham Navoiyniki ekanligi isbotlangan ("Ayyomi visol o'ldi yana". Tayyorlovchi: F.Sulaymonova. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995-yil, 28-bet).

Aynan shu matla'ni Bobur o'z risolasida keltiradi (61a varaq). Yoki risolaning 48b–49b varaqlarida "Mir Alisher Navoiy dag'i o'n ikki axram vaznig'a uch ruboiy va o'n ikki axrab vaznig'a uch ruboiy aytibtur", deya ta'kidlab, ana shu ruboiylarni vazn ko'rsatgichlari bilan ikki bayt-ikki bayt holida yozadi. Ularni keltiramiz:

Yo Rab, ne ofatdur ul husn-u jamol,
Kim yo'qtur yer ila jahon ichra misol.
Ming qatla shukrni desam oz erur
Gar bo'lsa bir zamon manga komi visol.

* * *

Ey sensizin umrumdin osoyish yo'q,
Ko'z istarkim, ko'rsa jamolingni to'q.
Kelgilkim, bir qatla uzoringni ko'ray,
Kim hajring ko'p urdi (bu) ko'ksumga o'q.

* * *

Ey mahvash, o'tgay bu sarkashlik ham
Rahm aylab bu qulg'a jafoni qil kam.
To Tengri asrag'ay xaloyiqqa seni,
Aylarmen yuz duo sening sari dam.

* * *

Ey sendin o'lub bag'rim ham ko'ksum dog'
Ko'nglum o'tu ul o'tqa to'kub ashkim yog'.
Tan o'lsa g'aming ichra joningg'a fido,
Jon kuysa muhabbatingda sen bo'lg'il sog'.

* * *

Bir lahza ko'ngul sensiz holin bilmas,
Javrungni ko'ngulga ey parivash qil bas.
Hajringda fig'onimg'a ulus nola qilur,
Qil holima rahmkim, erurmen bekas.

* * *

Ey sho'x, bizing sori bir ayla nazar,
Kim ohu fig'on o'ti chekar ko'kka sharar.
Yo vasl ila ko'nglumga qarin ayla murod,
Yo qatl ila qo'yma bu hayotimg'a asar.

Mana shu jihatlarning o'ziyoq Boburning "Aruz risolasi" ustida hali ilmiy-qiyosiy va matniy tadqiqlar davom etishi lozimligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Navoiy ijodini Bobur naqadar yaxshi bilgani va hali bu borada izlanishlar bo'lishi kerakligiga ishora qiladi.

DUNYO BO'YLAB

"ANING ZABTIG'A BIR DEVON YUBORDIM..."

"Dunyo" axborot agentligining xabar berishicha, jahonning ko'plab mamlakatlarida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

JIDDA. Saudiya Arabistonining yetakchi "Swift News" elektron nashrida Alisher Navoiy merosiga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi.

"Yangi O'zbekiston bilan bog'liq bugungi voqelik Alisher Navoiyning jahon madaniyati va ilm-fani rivojiga qo'shgan ulkan hissasini targ'ib etishni kun tartibiga qo'ymoqda. Bunda Navoiy merosini o'rganish va haqiqiy tarjimai holini yaratish, uning mohiyatini chuqur anglagan holda ijodi, ma'naviy merosini tadqiq etish, undan izchil va samarali foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda, – deb yozadi Saudiya nashri. – Bunday yangi amaliy qadamlar, avvalo, o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishi va buyuk tarixini tiklash uchun ham juda muhim".

DEHLI. Hindistonning yetakchi oliy bilim yurtlaridan biri – Javoharla'l Neru universitetida buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlangan konferensiya o'tkazildi.

Anjumanda adabiyot sohasi xalqlarimizni asrlar davomida bir-biriga yaqinlashtirib kelayotgan muhim yo'nalishlardan biri ekaniga e'tibor qaratilib, mamlakatimizda hind adabiyoti va Hindistonda o'zbek adabiyoti namoyandalari asarlari sevib mutolaa qilinayotgani ta'kidlandi.

Andijon davlat universiteti, Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Javoharla'l Neru universiteti o'qituvchi va professorlari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosining bugungi kundagi ahamiyati haqidagi o'z fikr-mulohazalarni, ilmiy qarashlarini bayon qilishdi.

Javoharla'l Neru universiteti professori Abdul Xoliq Rashid Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili ravnaqidagi alohida xizmatlariga to'xtalib, ayniqsa, buyuk mutafakkirning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilining go'zalligi va boy imkoniyatlari yorqin aks etganini ta'kidladi.

– Alisher Navoiy Hindiston va O'zbekistonni madaniy-ma'rifiy bog'lab turgan afsonaviy va buyuk timsol bo'lib, uning shaxsiyati, asarlari va adabiy an'analari ikki xalq uchun ham qutlug' merosdir, – dedi professor Ahloq Ahmad Ahan. – Men O'zbekistonda tashkil etilayotgan xalqaro anjumandagi ishtirokimni sabrsizlik bilan kutyapman va bundan juda mamnunman.

Javoharla'l Neru universiteti huzuridagi O'zbek tili kurslarida ta'lim olayotgan talaba yoshlar Alisher Navoiy, Bobur va boshqa taniqli o'zbek shoirlari ijodidan namunalar o'qib berishdi.

ASHXOBOD. O'zbekiston elchixonasida mamlakatimizda buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosiga bag'ishlangan brifing bo'lib o'tdi.

Brifingda yig'ilganlar e'tibori ikki muhim sana – buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi hamda shoir, tarixchi va atoqli davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligiga qaratildi. Darhaqiqat, qardosh xalqlarni ularning madaniyati o'ziga xos xususiyatlari bilan bo'linmas meros sifatida birlashtirib turadi.

QOHIRA. Misrning "Sada al-Balad" axborot agentligi akademik, yuridik fanlar doktori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Akmal Saidovning Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligiga bag'ishlangan "Mamlakat ustuni, davlat tayanchi" sarlavhali maqolasini e'lon qildi.

Ushbu yirik tahliliy maqola Alisher Navoiy faoliyati va Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinovning "Amir Alisher. Hayoti va faoliyati" nomli kitobida ilgari surilgan dalillar sharhiga bag'ishlangan.

AKS SADO

SERIALLARNI KIMLAR KO'RADI?

Televideniyening deyarli barcha kanallarida namoyish etilayotgan seriallarni muntazam kuzatib boraman, desam yolg'on bo'ladi. Lekin o'zimizda va xorijda tasvirga olingan, televizorda ko'rsatilayotgan seriallarning mazmun-mundarijasidan xabardorman, kasbim nuqtai nazaridan vaqt topib, bir-bir ko'zdan kechirib turaman. Yana bu masalada tahririyatimizga kelayotgan maktublar ham seriallar borasida ko'p holatlarni namoyon qiladi. Dastlabki muhim xulosa shuki, so'nggi yillarda yurtimiz studiyalarida suratga olinayotgan seriallarning aksariyatida milliy mentalitetimizga, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan, hatto ba'zan turmush tarzimizga mutlaqo yot bo'lgan voqea-hodisalar ko'payib bormoqda.

Qizig'i shundaki, biz bugun tarbiyamizga zid holatlar, tuturiqsiz, yalang'och voqealar aks etgan seriallardan farzandlarimizni, yoshlarni himoya qilmoqchi bo'lyapmiz. Vaholanki, bugungi kunda ular televizor ko'rmaydi, telefonda ham serial tomosha qilmaydi. Aksariyati telefon, kompyuterda o'yinlarni, turli ahloqsiz voqeliklarni tomosha qilish, o'zlari ham shu jarayonda ishtirok etishga berilib ketgan. Bizni tashvishga solayotgan asosiy masala tarbiya bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan ayollarning, onalarning seriallarni kanda qilmay ko'rayotganidir. Albatta, hamma ayollar serialga "sho'ng'ib" ketgan, degan fikrdan yiroqmiz. Lekin farzand tarbiyasiga mas'ul asosiy shaxslar – aksariyat ota-onalar, ayniqsa, onalar farzandini butunlay telefonga bog'lanib qolishdan asrash, undan foydalanganda kerakni nokerakdan, foydalini foydasizdan ajratish, qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish o'rniga, o'zi seriallarga o'ta berilib ketayotgani nihoyatda afsuslanarli hol.

Tabiiyki, serial ko'rayotgan kishi, o'zi istamagan holda, namoyish etilayotgan tomosha ta'siriga tushadi. Voqealar esa, shubhasiz, uning ruhiyatiga, qarashlariga, xohish-istaklariga daxl qiladi. Ayni serial ko'rayotgan vaqtda tomoshaga berilib ketib, atrofni, oila, bola-chaqani unutadi: farzandlar nazoratsiz qoladi, ularda istagan ishni qilish imkoni paydo bo'ladi. Xullas, farzand tarbiyalovchining o'zi tarbiyasizlikka yo'l qo'ygan oilada, albatta, bolaning ahvoli nima bo'lishi ma'lum. Ko'ryapmizki, ota-onalar bir yonda, farzandlar bir yonda... Xo'sh bunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerak? Texnika rivojlangan, barcha millatlar emin-erkin muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan bir zamonda cheklovlar o'rnatish insonning haq-huquqlariga daxl qilish, deb baholanishi turgan gap. Lekin milliy mentalitet, milliy o'ziga xoslik, milliy ta'lim-tarbiya, degan tushunchalar bor. Agar shu nuqtai nazarda qaraydigan bo'lsak, o'zbek millatining qadriyatlariga, urf-odat, udumlariga, tarbiyaviy tutumlariga to'g'ri kelmaydigan seriallarning ssenariylarini kimlar yozayapti, ularni kimlar suratga olayapti va kimlar rol o'ynayapti, degan haqli savollar tug'ilishi tabiiy. Albatta, o'zimizning mualliflar, o'zimizning rejissyorlar va aktyorlar. Shu gaplarni yozayotib hamkasblarimning bir serial ustidagi suhbati yodimga tushdi. Emishki, "Milliy" telekanal orqali namoyish etilayotgan "Yig'lagan qizlar" nomli serialda oiladagi uchta qizdan bittasi qimorboz bo'lib ketgan emish. Otasi qamalib ketib, 20 yildan so'ng qamoqdan chiqib, qimorbozlarga qo'shilib olarkan. Bir qimor o'yinida qizi ham qatnashib, otasiga yutqazib qo'yarkan. Ota o'zi tanimaydigan qizini xotinlikka olishni xohlab qolarkan. Lekin onaning hunarlari ham bundan kam emas. Serialning davomini qo'ya turib, shu voqealarni tasavvur qilgandayoq odamning tepa sochi tikka bo'lib ketadi. Xo'p, shunday oila bor ham deylik. Bema'ni, betayin odamlardan iborat bu oilaning sharmandali hayot tarzini butun respublika, hatto boshqa yurtlarga doston qilishdan nima naf?! Ehtimol, faqat yaxshilikni ko'rsatib, kamchiliklarni xaspo'shlash noto'g'ri yo'l, deydiganlar bordir. Lekin millatning ayollarini bu qadar jirkanch, pastkash ishlar orqali dunyoga sharmanda qilish qanchalar to'g'ri?! Balki shunday otalar, onalar, qizlar bordir. Nisbatan kamchilikni tashkil etuvchi bu kabi kimsalarni millionlar auditoriyasiga namoyish etib, nimaga erishamiz?! Ehtimol, ba'zilar chet ellarda ishlangan bu kabi seriallarni ham ko'rishayaptiku, deya e'tiroz bildirishlari mumkin. To'g'ri, lekin odamlar buni chet elning seriali, bular boshqa odamlar, deb qabul qiladi.

Kezi kelganda aytish joizki, biz fikr bildirayotgan seriallar, asosan, xususiy studiyalarda suratga olinib, xususiy kanallarda namoyish etilyapti. Xo'sh, ular bizning yurtimizda yashamaydimi, milliy o'zligimiz, qadriyatlarimiz, odob-axloq me'yorlarimizning ularga daxli yo'qmi?!

Gulchehra UMAROVA

Alisher NAVOIY

“ISHQ O‘TINING DOG‘INI AHLI VAFODA ISTANGIZ”

G’AZALLAR

Oshiq o‘ldum, bilmadim yor o‘zgalarga yor emish,
Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Qaddig‘a el mayli bo‘lg‘ondin ko‘ngul ozurdadur,
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak urdi, men o‘ldum, erur bas turfakim,
Jonim etgan resh el bag‘rig‘a kirgan xor emish.

Rishtakim, muhlik yaram og‘zig‘a tikti, angladim,
Kim kafan jinsi qirog‘idin suvurg‘an tor emish.

Ko‘yi devoridin og‘riq tang‘a tushgan soyadek,
Seli g‘amdin emdi soya o‘rnig‘a devor emish.

Jong‘a tahvif ayladim tig‘i halokidin aning,
Bilmadim bu ishdin ul o‘lguncha minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo‘blarni ko‘rma osonlig‘ bila,
Kim biravkim soldi ko‘z, uzmak ko‘ngul dushvor emish.

* * *

Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.

Kimgakim jonim fido aylab sog‘indim, yor erur,
Ermas erdi yorlig‘da chun vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo‘qturur mutlaq vafo,
Vahki, umri ulcha yo‘qtur sog‘inib bor istadim.

Ulki topilmas bashar jinsida, vah, g‘aflat ko‘rung,
Kim pari xaylida men devonai zor istadim.

Sirri ishqimni ko‘ngul ko‘z birla fosh etmak ne tong,
Qalb-u tardomanni chun men sohib asror istadim.

Shayx birla xonaqahdin chun yorug‘luq topmadim,
Dayr piri xizmatig‘a ko‘yi xammor istadim.

Ey Navoiy, chun rafiqe topmadim bu g‘ussadin,
O‘zni bekaslik balosig‘a giriftor istadim.

* * *

Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?”
Derki: “Bois bo‘ldi jism ichra marazning shiddati”.

Jismdin so‘rsamki: “Bu za’fingg‘a ne erdi sabab?”
Der: “Anga bo‘ldi sabab o‘tluq bag‘irning hirqati”.

Chun bag‘irdin so‘rdum, aytur: “Andin o‘t tushti manga
Kim, ko‘ngulga shu’la soldi ishq barqi ofati”.

Ko‘ngluma qilsam g‘azab, ayturki: “Ko‘zdindur gunah,
Ko‘rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati”.

Ko‘zga chun dermenki: “Ey, tardomani yuzi qaro,
Sendin o‘lmish telba ko‘nglumning balo-yu vahshati”.

Yig‘lab aytur ko‘zki: “Yo‘q erdi manga ham ixtiyor
Ki, ko‘rundi nogahon ul sho‘xi mahvash tal’ati”.

Ey Navoiy, barcha o‘z uzrin dedi, o‘lguncha kuy,
Kim, sanga ishq o‘ti – o‘q ermish azalning qismati.

* * *

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin
Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig‘, yashil.

Shishadek ko‘nglumdadur gulzori husnung yodidin,
Tobadonning aksidek alvon qizil, sorig‘, yashil.

Oraz-u xoling bila xatting xayolidin erur
Ko‘zlarimning ollida davron qizil, sorig‘, yashil.

La’lgun may tutqil oltun jom birla sabzada
Kim, bulardin yaxshi yo‘q imkon qizil, sorig‘, yashil.

Faqr aro berangliq dushvor erur behad, valek
Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig‘, yashil.

Ey Navoiy, oltin-u shingarfu zangor istama,
Bo‘ldi nazming rangidin devon qizil, sorig‘, yashil.

* * *

Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.

Vomiq-u, Farhod-u Majnundeklar ul vodiy aro
Bo‘lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz.

Yuz alarning ishqicha dard-u, balo-u g‘ussag‘a
Tolib el boshiga qolgan mojaroda istangiz.

Eyki, istarsiz savodul vajh fid-doraydin,
Boxabar bo‘lmoq meni yuzi qaroda istangiz.

Ko‘nglum ul zulf ichradur, zinhor ishqim sharhini
Istamang men telbada, ul mubtaloda istangiz.

Nuqta yanglig‘kim, vafo uzra qilur kotib raqam,
Ishq o‘tining dog‘ini ahli vafoda istangiz.

Og‘zi shavqidin Navoiy itti, oni istar el
Yo adam dashtida, yo mulki fanoda istangiz.

RUBOIYLAR

Ko‘zum uchadur, magarki yorim keladur,
Es har dam ozar, magar nigorim keladur.
Yo bodiyayi firoq sayrida qilib
Yuz marhala qat’, shahsuvorim keladur.

* * *

La’lingni qilib nuktasaro, ey qorako‘z,
Ishq ahli hayotig‘a yaro, ey qorako‘z.
Chekma yana surma ko‘z aro, ey qorako‘z,
El jonig‘a qilma ko‘z qaro, ey qorako‘z.

* * *

Gar oshiq esang, mehr-u vafo qilma havas,
Dard istavu daf’ig‘a davo qilma havas,
Hijron-u visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdin g‘ayri rizo qilma havas.

* * *

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va’daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

* * *

Ko‘nglumni g‘am-u dard ila qon ayladi ishq,
Ko‘z yo‘lidin ul qonni ravon ayladi ishq,
Har qatrani bilmadim, qayon ayladi ishq,
Bedil ekanim bo‘yla ayon ayladi ishq.

* * *

Ko‘nglum gul-u sarv mayli qilmas, netayin?
Sarv-u gul ila dame ochilmas, netayin?
Gar sho‘x ko‘runsa, ko‘zga ilmas, netayin?
Bir sho‘xkim, ul tilar – topilmas, netayin?

* * *

O‘lsam, yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab eliting jismi figorimni mening.
O‘truchi qarib ahli diyorimni mening,
Ko‘yida qo‘yung tani nizorimni mening.

* * *

Ey ulki, zamona ahlidin ayrilding,
Ishq ahli tariqi xo‘b ekanni bilding.
Xush qilding, alar tavrini-yu qotilding,
Rahmat sanga, yaxshi aylading, xush qilding.

* * *

Sadbarg, binafsha, yo‘qsa nargis, yo gul,
Ichmak bo‘lmas bular havosi bila mul.
To hajr yelidin o‘ldi oshuftadimog‘,
Yuz noxuna ko‘z ichravu yuz pora ko‘ngul.

* * *

G‘urbatqa tushub zaif-u bemor o‘ldum,
Dard-u g‘am-u mehnat ilgida zor o‘ldum.
Sartosar ajal toshidin afgor o‘ldum,
Sensiz ne balolarg‘a giriftor o‘ldum.

* * *

Ey bodi sabo, agar havo aylagasen,
Gulshang‘a yetarni muddao aylagasen.
Sarv ollida yer o‘pub duo aylagasen,
Gul qoshida qullug‘um ado aylagasen.

* * *

Men menmu visol umididin shod o‘lg‘an,
Bir-bir g‘am-u anduhdin ozod o‘lg‘an.
Oz-ozg‘ina bergan soyi gul atri nasim,
Bulbuldek ishim nolavu faryod o‘lg‘an.

Armug‘on

Insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan islohotlarimiz buyuk Alisher Navoiy bobomizning bitta ko‘ngli o‘ksik odamni xursand qilish – Ka’bani obod etish bilan barobar, degan teran ma’noli so‘zlariga har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Shavkat MIRZIYOYEV



G‘afur G‘ULOM,
O‘zbekiston xalq shoiri

HIROT TONGLARI

Hirot tongotarin tasavvur qilib,
Yigitlik umringning kamolin ko‘rdim:
Qarigan chog‘laring qaro shomida,
Xuroson o‘lkasin zavolin ko‘rdim.

Zavolni bilmagan porloq ijoding,
Ma’rifat mulkida bitmas xazina!
Insoniy kamolot katta yo‘lida,
Bir poya yuksakroq oltindan zina.

O‘tmishdan besh yuz yil tarixchi uchun,
Sinchiklab qarasa – kuni kechadek.
Yashovchan kishiga endigi ming yil,
Ertaga qo‘liga kirgan o‘ljadek.

Besh yuz yil hurmating saqlagan o‘zbek,
Kecha tug‘ilding, deb qiladi faraz,
Yetuk kishilarni yana ming yillar
Xalq farzand ataydi, jondan – beg‘araz.

O‘zbek deb atalgan ozod ulusning,
Otaxon shoiri, qadrli ustod.
Oshiqlar g‘azaling kuyga solganda,
Ma’shuqlar dilining xonasi obod.

Biror shohbaytingni yoddosh tutmagan,
Kattadir, kichikdir, bizda kishi yo‘q.
Oltin baldoqdagi nifrit ko‘z kabi
Asaring biz uchun bo‘ldi qorachiq.

Ulug‘vor xalqimiz tarixda mashhur,
Guvohlik berolur bunga Gerodot.
O‘zbekni, tojikni qabila atab,
Biror lord qilolmas o‘tmishni unut.

Sharqimiz chumoli uya emasdir,
Birin birovidan tanib bo‘lmasa,
Sho‘rlik boyvachchalar, toleingiz sho‘r,
Afsuski, tarixdan tonib bo‘lmasa!

Ne-ne tarixlarni boshdan o‘tkazib,
Talay jafolarni tortgan eski Sharq –
Ne-ne daholarni tarbiyat qilib,
Oftobday jahonni nurga qildi g‘arq.

Alisher Mushtariy yulduzi kabi
O‘zbek osmonida balqigan chog‘i,
Yana bir muhtaram o‘g‘il ko‘rganday,
Kattaroq ochildi olam quchog‘i.

Elektr barchaning uyin yoritur,
Va tuz totimida milliy farq yo‘q.
Ma’rifat insonning sherik xislati,
Vatani fazodir bo‘shalarkan o‘q.

Tirik Farhodlarni tanimak bo‘lib,
Oliy yurtimizga qilsangiz safar,
Bu yerda har bitta taroshlangan tosh,
Yuksak umidlardan beradi xabar.



Abdulla ORIPOV,
O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

ALISHER

Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi, –
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

Shu buyuk o‘g‘lingni ardoqlab dildan, –
Xalqim, ta’zim etsang arzigay tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftarida o‘zbek degan nom.

Boyqaro irg‘ishlab istak otida
Jahonga boqqanda misli bola sher, –
Hirot darvozasin bir kanotida
She’riy lashkarini tizgan Alisher.

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.
Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,
Alisher qalamni ko‘rsatgan, xolos.


Tun bilan tong erur tashbehda udum,
Misoli zahr-u may, hajr-u shakar lab.
Kimnidir quyoshday eslasa mardum,
Kimnidir zulmatday yurarlar qarg‘ab.

Nido tingla, bu kun, yurting tarafdan,
Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!
Ogoh bo‘l, Alisher, sen ushbu gapdan:
Har ikki nabirang – biri Alisher.

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to.
Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.

Birovlar nazdida johil Osiyo
Faqat zavol ko‘rib, ko‘rmagan kamol.
Muso iltijosi yetdi-yu go‘yo,
Haq Tur tog‘i uzra ko‘rgazdi jamol...

Jahon mehrobida paydo Alisher…
Shodmon qasida ayt sen ham, ey quyosh!
Besh yuz yil, unga ham nima gap axir,
Mingga qadam qo‘ydi yigirma besh yosh.



Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

AYLAGACH

Muxammas

Ko‘z ochar gulshanda g‘uncha, bulbul afg‘on aylagach,
Nega afg‘on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach,
Misli oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham’ ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

Nega ul kun sochlaringni anbar afshon aylading?
Ro‘zigorim tiyra, ko‘zim kavkabiston aylading?
Qo‘lga qo‘ygachmu xinolar yo dilim qon aylading,
Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.

Mehr so‘ndirgach dilida, jonni so‘zon ayladi,
Husnini obod etib, ko‘nglimni vayron ayladi,
Sehr aylab oshikoro, bandi pinhon ayladi,
Oshikor aylab yuzin, ko‘zimni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko‘ngil, o‘zimni hayron aylagach.

Men-ku sodiq mahram erdim og‘zi mahkam, ko‘ngli pok,
Ishq sirin etmasdim oshkor bo‘lgunimcha toki xok,
Shafqat istab nola qildim, ont ichib yoqamni chok,
Jonda qo‘yg‘och naqdi ishqin qildi ko‘nglimni halok,
O‘ldurur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Nola-yu afg‘oning, Erkin, dilbaringga yetmadi,
Yetsa ham yo bemehr yor zarra parvo etmadi,
Bitdi ko‘p zahming va lekin ishq zahmi bitmadi,
Ey Navoiy, ishq agar ko‘nglingni majruh etmadi,
Bas, nedinkim qon kelur og‘zingdan, afg‘on aylagach.



Omon MATJON,
O‘zbekiston xalq shoiri

AVVALGILARGA O‘XSHAMAS

Muxammas

Charx avzoyi bu dam avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kotib-u davr-u raqam avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Endi inson qadri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Ko‘nglum ichra dard-u g‘am avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Ne uchar yulduzlar o‘tdi chalg‘itib elni juda,
Necha avlod yo‘li-yu umidin aylab behuda,
Davr mezoni bilan tortay bu kun o‘zimni-da,
Ne sitamkim qilsa rahm maxfiy erdi zimnida,
Emdi qilsa ne sitam, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Bul Jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim,
Voh, quyosh savdosig‘a shamlar nechuk bo‘ldi hakim,
Ishq, bu – o‘z umrim, anga nechuk qasamlar ichmakim,
Demangiz, Shirin-u Layli oncha bor ishq ichrakim,
Xo‘blikda ul sanam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Qay kishikim bir ulug‘ ishga etibdi jon nisor,
Shiddati pastu baland kelganda ham bo‘lmaydi or,
Ey falak, hech kimni etma besamar yo‘llarda xor,
Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o‘zga yor,
O‘lmishamkim, bu alam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Ona Sharq tojin kiyur! Zulmatda ushlatmang meni,
Bodayi haq mastiman, yolg‘onga uyg‘atmang meni,
O‘z xayolimg‘a qo‘ying, o‘zgaga ishlatmang meni,
Ishq aro Farhod ila Majnung‘a o‘xshatmang meni,
Kim bu rasvoyi dijam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Har kima har xil yozur Arsh Mirzosi sana,
Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana,
Nafs ipiga bog‘lidur ruh iplarin uzgan tana,
Ko‘yining ehromidan ko‘nglimni man etmang yana,
Kim anga azmi haram avvalgilarg‘a o‘xshamas.

So‘kmak o‘tganlar ishin notavonlar rasmikim,
O‘z zamonin rost etar qavmi marddir asli kim,
Shu hayot tilsimlarin ochmoq omonlar kasbikim,
Ey Navoiy qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,
Shoh G‘oziyga karam avvalgilarg‘a o‘xshamas.



Halima XUDOYBERDIYEVA,
O‘zbekiston xalq shoiri

IZLAYMAN

Ishonarkan ortdagi-yu yondoshga,
Ishonarkan begona-yu qondoshga,
Boshim bilan urilarkan, voh, toshga,
Orangizdan Navoiyni izlayman.

Yashnab-yashnamasdan, so‘lib-so‘lmasdan,
Ketib borarkanman, o‘lib-o‘lmasdan,
Men o‘zimning kimligimni bilmasdan,
Orangizdan Navoiyni izlayman.

Dunyoning sir-sinoati ming turlik,
Birda xo‘rlik o‘ldiradi, bir ko‘rlik,
Navoiyni tug‘may, nechun, men sho‘rlik,
Orangizdan Navoiyni izlayman.

O‘tarkanman dog‘i bilan dog‘lanib,
Xokistarin tanib qoldim, oh, tayanib,
Devonig‘a suyanarkan poklanib,
Orangizdan Navoiyni izlayman.

Ayting, ko‘p qoldimi yo oz ul kunga,
Qachon yetgum ul o‘g‘ilga, pok unga,
Yuzim bilan yiqilarkan oldinga,
Orangizdan Navoiyni izlayman.

Yursam, yurgum shu niyat har dam yoqib,
Ketsam ham umrim – shu yorug‘ g‘am yoqib,
Qabrimda ham tunlar turib, sham yoqib,
Orangizdan Navoiyni izlayman.

“MASJID GUMBAZLARI...” KIMNING FILMI?



1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloniga bag‘ishlangan “Masjid gumbazlari ostidan” nomli film 1927-yili suratga olingan. Filmdagi turli kadr-manzaralarni suratga olish jarayoni haqida “Yer yuzi” jurnalida B.H. imzosi bilan maxsus maqola hamda uchta surat e’lon qilingan. Maqola tarkibida ikki marta “Gertel” ismi tilga olingan. Xo‘sh, u kim? K.Gertel kinorejissyor, ssenariychi, rassom, siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan. Kazimir Gertel (1889–1938) 1926–1928-yillarda Moskvadan Toshkentga kino san’ati sohasida ishlash uchun taklif etilgan. U “Masjid gumbazlari ostidan” filmi bilan birga “Ravot qashqirlari” filmiga ham rejissyorlik qilgan. “Ravot qashqirlari” haqidagi maqolasida Abdulla Qodiriy ijobiy fikrlar bildirgan. Ayrim tanqidiy mulohazalarni ham aytgan. Kino uchun ssenariylarni milliy turmush tarzini biladigan o‘zbeklarning o‘zi yozishi kerakligiga, ya’ni “...mumkin qadar ssenariy yozuvchilarni o‘zbeklardan yetishtirish” lozimligiga urg‘u bergan. “Masjid gumbazlari ostidan” filmi ssenariysini Gertel va Valentina Sobberiy yozgan. Filmda Komil Yormatov, Rahim Pirmuhammedov kabi o‘zbek aktyorlari ham rol ijro etgan.

Quyida berilgan “Yer yuzi” jurnalining 1927-yili 30-sonida bosilgan kichik bir maqola o‘zbek kinosi tarixining bir sahifasini bo‘lsa-da, yoritishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Tahririyat

1916-YIL

(O‘zbek davlat kinosi kartinalaridan)

Eski Turkiston o‘lkasining bir ko‘b shaharlarida maydon olg‘on 16-nchi yil ishchi voqeasi o‘zining qonli kunlari bilan mag‘mum (og‘ir – S.K.) sirlar qoldirg‘oni ma’lumdir.

16-nchi yil – chor hukumatining istibdodiga mahalliy xalqning chiday olmay, unga qarshi qo‘zg‘olg‘on yili.

Jizzaxning to‘pg‘a tutilishi, xalqining tog‘-toshlarg‘a haydalishi, yuzlarcha kambag‘al oilalarning uysiz-joysiz muntazir qolishi, xotin-qizlar, yigit-yalanglar, bola-chaqalarni unutilmas qayg‘ular bosishi va Toshkant kabi bir ko‘b shaharlarda qonli urinishlarning yuz ko‘rsatishi – hammasi 16-nchi yil alamli estaliklaridandir.

Mahalliy xalqning, ayniqsa, ishchi-dehqonlarning qon tomirlaridan joy olg‘on mana shu 16-nchi yil voqeasini bugun o‘zbek davlat kinosi kinokartinaga olishqa muvaffaq bo‘ldi. Maskav, Toshkant, Samarqand, Buxoro, Jizzax shaharlari bilan Urgut, Dahbet va boshqa qishloqlarda suratka olinib kelgan bu kartinaning 90 foizi hozir tamom bo‘lib qolg‘on. Bir oz bo‘limi o‘zbek davlat kinosining Eski shahar fabrikasi qoshidag‘i pavilo‘nda olinmoqdadir.

Tez kunlarda xalq ko‘ziga ko‘rinishi kutilgan bu kartinaning ko‘ruchilar orasida chuqur tuyg‘ular uyg‘otishig‘a ishonchimiz yo‘q emas.

Shuni ham unutmaylikkim, ro‘mon shaklida kinokartinaga oling‘on har bir voqea o‘zga hollarg‘a tadbiq etdirilib va turmush urinishlarining har bir burchagidan, tabiiy hodisalaridan o‘xshatmalar qo‘shilib, bir necha bo‘limlik kinoro‘mon, kinokartina lentasi holig‘a aylantiriladi.

Shunga o‘xshag‘on 16-nchi yil voqeasi... Voqeani bo‘lg‘onicha kartinaga olish bilan qolmasdan, uning sabablarini ochish yo‘lida ham harakat qilindi: istibdod hukumatining davlat tashkilotiga ishong‘on fabrika egalarining faoliyatlari, Ovro‘po muhorabasining kelib chiqishi natijasida chor hukumatining mustamlakalar ustida o‘ynog‘on o‘yinlari, zulmlari, vahshatlari va boshqa shunga o‘xshag‘on kayfiyatlar asosiy voqeaga aralashtirilib yuborilg‘on.


1916-نچی یل.

Chindan-da, ro‘mon shaklida kinokartinaga oling‘on har bir o‘zgarishning qo‘zg‘olonlarni, otish-o‘ldirishlarini, umumning ishtiroki bilan yuz ko‘rsatkan to‘polonlarini aynan – o‘zicha kartinaga olib ko‘rsatkanida: quruq sho‘not (shon-sharaf – S.K.) kino-jurnal yoki undan-bundan bo‘lib qoladi; o‘zgarish sabablarini, kelib chiqishlarini, natijalarini turmush urunishlaridan misollar bilan maxsus fo‘rmada maydonga otqonda, tilagimiz o‘rnig‘a kela qoladi.



16-nchi yil voqeasining kartinaviy tuzilish tomoni ham shu yo‘lda.

* * *

Kartina senariyasini tuzuchilar: Gertel va uning o‘rtog‘i bo‘lib, rejisso‘rlikni ham Gertel bajarib boradi.

Kartina “Machit gumbazlari ostidan” degan bir unvon ostig‘a kiritilgan. Bu mavzu ustida yozilg‘on maqola, asar, oling‘on kartinaning ruhoniylar hayotini tamsil etmagi lozim kelib qoladi. Holbuki, ular hayotidan bir asar kartinada topilmaydi. “Machit gumbazlari ostidan” degan bilan sharqni bildirmakchi bo‘lsalar, kartina umumsharq tarixini, sharq hayotini keng miqyosda ichiga olmaydi.

* * *

Kartinaning bir husni – ishtirok etkan ko‘bchilikning O‘zbekiston kambag‘al dehqonlari, ishchilari, xizmatchilari va ularning oilalari bo‘lishidir.

Urgut va Dahbet qishloqlarida uch minglab ishchi-dehqonlarning yuzlarcha ot-aravalar bilan atrof qishloqlaridan kelib qizg‘in harorat ostida soatlarcha, kunlarcha qatnashishlari favqulodda suyunarlik hollardandirkim, O‘zbekiston ishchi-dehqonlari orasida madaniy saviyaning qanchaliq o‘skanini ochiq ko‘rsatadir.

B.H.
“Yer yuzi” jurnalining
1927-yil 30-sonidan
Sohiba KARIMOVA *tayyorladi.*

YURT QAYG‘USI

“TARAQQIY” YO‘LI

XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatiga hozirgi zamonda ham biz uchun o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi bir yulduz sifatida qarash o‘rinlidir. Bu harakatga o‘sha davrning mashhur ziyolilari, mutafakkir arboblari bo‘lgan Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar bosh bo‘ldilar.

Dastlabiga maktab-maorif sohasida yangicha o‘qitish usuli, o‘quvchilarga diniy-islomiy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy-zamonaviy bilimlar ham berilishi tarafdorlari bo‘lgan jadidlar ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham yangiliklarning amalga oshishi, taraqqiyot tarafdorlari bo‘lib maydonga chiqdilar... 1905-yilning o‘rtalariga kelib birinchi jadid nashrlari paydo bo‘ldi. Asrimiz boshida dunyoga kelgan taraqqiyparvar jadid matbuotining ilk nashri – 1906-yilning 14(27) iyunidan e’tiboran chiqa boshlagan “Taraqqiy” gazetasi edi. Muharriri o‘zining hur fikrlari va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi harakatlari uchun Qozon shahridan Toshkentga badarg‘a qilingan tatar ziyolisi Ismoil Obidov bo‘lgan bu nashrga o‘sha davr matbuotining ilk tadqiqotchisi bo‘lgan Ziyo Said “Jadidlarning fikr tarqatg‘uvchisi, eng sevikli va to‘ng‘ich gazetasi” edi, deb baho bergandi. “Najot: Maslakda sabot, to‘g‘rilikda ijobat” gazeta shiori bo‘lib, buning ma’nosi najot, ya’ni ozodlikka erishish yo‘lini maslak – e’tiqodda mustahkam turish, to‘g‘rilikka amal qilish demakdir. Gazeta o‘z sahifalarida qoloqlik va jaholatga, zulm va zalolatga, shu jumladan, mustamlakachilik tartiblariga qarshi kurash e’lon qildi. Ijtimoiy hayot masalalarini dadil ko‘tarib chiqqan bu nashr sahifalaridagi materiallarda tanqidiy ruh, fosh etish yo‘nalishi kuchli edi. Gazetaning birinchi sonida e’lon qilingan bosh maqolaga: “Biz – musulmonlarni hurriyatda haqlari bormi? Yo‘q! Qarindoshlar, yuz marta yo‘q!” degan sarlavha berilib unda chor hukumatining xalqqa erkinliklar va’da qilgan Manifesti Turkiston xalqlariga hech qanday haq-huquq bermagani, hamon milliy va siyosiy zulm-istibdod hukm surib kelayotgani bayon qilinadi: “Hozirda ijtimoiy kalom, matbuot uchun berilgan hurriyatlar to‘shak ustida, og‘ziga suv tomizilib turilgan og‘ir xastadek ekanini tilsiz va ko‘r tabiblar ham tasdiq eturlar. Bu kabi zaif va lanj hurriyatlarga xalqimiz hamon rozi bo‘lmay kurashib, tortishib... hurriyat, ya’ni ozodlik va shodlik bayramlarini umri boqi odamlarga ko‘rsaturlar”. Ko‘rinib turibdiki, bu o‘rinda ijtimoiy-hajviy tanqidning keskin, zaharxanda uslubidan foydalanilgan.


وجلا وطن ولق اینك محنت ومشقتی دین البته خلاص قیلمه لر کرك .

فیلیه‌تون

برلی جهالت؛ جهل مرکب

هر ملت‌ك مکتب ومدرسه‌سی اولدوغی کبی بزلی هم مکتب ومدرسه لریمز کریمه ی نظام وی اصول اوسله هم یوق دیمك درجه ده آز ایسه‌دور . هر ملت اولادینی تربیت وتعلیم علومدن کورسه‌تکان همت وغیرتی کبی بزلرده هم اوز معصوم اولادلرینی جهالت وغفلت ظلمتیدن قتلقیه هیچ بررضالری اولمای قولرلریدن کیلکانیچه تعلیم وتربیت اولادده قصور ایتمکورسه‌تمکچون فاللر موجوددورلر . ولیکن دنیانك نه چون کیلکانین بیلمای علم ومعارفده اعلا رغبت قیلمای جانیدن شیرین بالالرینی کوچه بکوچه کیزدوروب بیچاره معصوم عزیز عمرینی جهالت آتشینه یاندورغوچی بی جیت وی دیانت اقالر هم ارامزده آز ایسه‌دور . کوب دیندا طریمزی کورارمزکه اوز فرزندلرینی اعلا مکتبغه بیمای اوقالریدن ایرکاشتوروب رومیلر ایشیکده اوزلری کبی حد متچیلیکغه اوزکاتوب دنیا وآخرتی سعادتی اولفان علم ومعارفدن محروم قویماقدن هیچ بر ابا قیلمامشلر . بعضی عزیزلریمز باردورکه اوغلینی قولیدن توتوب مکتبغه آلیب بارور . معلمدن طلب قیلورکه تقصیر شو اوغلومنی کوشتی سیزنیکی مستحق بزنیکی برعلاج قلب تیزلیك ایله نقد ونسیه یقرماقی اورکاتیب بیمورمز دیر . (ایشاکیفه براشور توشاوی) دیکن عبرت لرنی متالیچه معلملرلی هم اکثرلری قاپون تعلیم وتربیت دین بتون بتون بی خبر کشی لر اولوب

Ijtimoiy hayotning taraqqiyot qonunlarini to‘g‘ri tushungan “Taraqqiy”chilar jamiyatdagi jabr-zulmning har qanday ko‘rinishlarini dadillik bilan fosh etdilar. Gazetaning 17-sonida bosilgan bosh maqolada chor hukumati mirshablarining haddan oshgan zulmlari, ular hatto ko‘chada o‘z ishi bilan yurgan odamlarni ham ushlab kaltaklashlari qahr-g‘azab bilan qoralanadi. “Ma’murlar” degan maqolada esa hukumat tomonidan tayinlangan amaldorlarning adolat qilmasliklari, oddiy xalqni mensimasliklari tanqid qilinadi:

“Fuqaroning xizmati uchun tayin qilinmish bo‘lg‘onlari xotirlariga kelmak shuyla tursin, balki bilaks fuqaroni o‘zlari uchun xalq qilinmish jonivor hisob qilub, kibr-g‘urur ila butun dunyoni to‘ldirdilar”, deb ta’kidlanadi maqolada.

Gazeta xalq ommasining, oddiy odamlarning ko‘zlarini ochishga, dunyoni anglashga, o‘z haq-huquqlari uchun faol kurashishga, loqayd, mute’ bo‘lmaslikka chaqiradi: “Hamma xalq hurriyat uchun kurashib, jabr va zulmlardan ozod bo‘lay deb turg‘onda... Turkiston musulmonlari pristuf va hokimlarga qo‘l qovushtirib, sajda qilub, o‘z-o‘zlarin hurriyatdan bezg‘on kabi ko‘rsatub, obdan obro‘siz bo‘lib, yuzlarina qora tortilg‘andek bo‘ldi. Lekin xalqimizning jabr ila to‘kilgan qonlari mamlakatimizni bo‘yog‘on edi”. Gazetada bosilgan “Dunyo yig‘uvchilar va mehnat qiluvchilar to‘g‘risinda” maqolasida esa barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchilar xalq ekani ta’kidlanadi.

“Taraqqiy” gazetasi o‘z materiallarida ozodlikka erishish yo‘lida ilm-ma’rifatning nihoyatda zarurligini, faqat o‘qigan, dunyoviy bilimlarni egallagan, o‘zligini tanigan millatgina o‘zining yorqin kelajagiga ega bo‘lishini uqtiradi. O‘zbek xalqining chinakam ziyoli, fidoyi farzandi Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lining gazetaning shu sonida bosilgan “Bizning jaholat – johili murakkab” felyetonida ana shu mavzuda fikr yuritiladi.

“Ey vatandoshlar! Diqqat nazari ila boqing! – deb yozadi muallif. – Bir bolani maktabga bermoqdan maqsad... zarurati dunyomiz o‘lg‘on ilmi hisob, jug‘rofiya, tarix kabi ilmlarni o‘rgatmoqdir”. Muallif maktablarda o‘qitishda yangi nizomga o‘tish, avvalo muallimlarning o‘zlari ham dunyoviy ilmlardan bahramand bo‘lishlari xususida so‘z yuritadi. Buning aksi esa millatning taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘luvchi jaholat ekanini achchiq ta’kidlaydi:

“Bu jaholat natijasidirki, o‘zimiz yerli musulmonlardan o‘ldigimiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o‘ldik va bu jaholat xohishidirki, millat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz bugun millatni yoddan chiqarib, iste’dod va g‘ayratlarini choyxona va pivoxonalarga sarf etmoqdadurlar”, deb afsus bilan maqolasini tugallaydi Munavvar qori.

Gazeta feodal qoloqlik, jaholat, diniy mutaassiblik kabi illatlarni tanqid qilar ekan, bunda hajviy publitsistikaning felyeton janridan ham keng foydalandi. Gazeta o‘z felyetonlarida taraqqiyotga to‘sqinlik qilib kelayotgan mutaassib “qadimchi”larni ham hajviy tanqid ostiga oldi. Shunday materiallardan birida eski “qadimchi”larning yonini oluvchi “Turkiston viloyatining gazeti” hamda uning muharriri Ostroumovni ham ayamasdan tanqid qildi.

“Taraqqiy”ning muharriri va asosiy muallifi bo‘lgan I.Obidov qalamiga mansub hajviy maqola va felyetonlarda yuqorida aytganimizdek zaharxandali kinoya uslubi qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘zbek jadid matbuotining atoqli namoyandasi Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lining ushbu gazetada bosilgan felyetonlarida olingan mavzuga nisbatan ko‘proq achinish, kuyinish ruhini sezamiz.

Turgan gapki, “Taraqqiy”ning ijtimoiy dadilligi, uning sahifalaridagi hur fikrlar, felyeton va maqolalarning fosh qiluvchi achchiq tili chor hukumati va mahalliy qora kuchlarga yoqmadi va gazeta dastlabki sonidan boshlab hukumat ta’qibi ostida bo‘ldi, 19-sonidan so‘ng u yopib tashlandi va muharriri qamoqqa olindi. Ammo “Taraqqiy” boshlab bergan yo‘l – zulm va istibdodni fosh etish hamda bunda achchiq va haqqoniy so‘z – hajviy publitsistikadan keng foydalanish undan keyin birin-ketin dunyoni ko‘rgan “Xurshid”, “Shuhrat” va jadid matbuotining boshqa nashrlari tomonidan davom ettirildi.

Hozirgi kunga kelib esa mamlakatimizda yangi nashr – “Jadid” haftaligining dunyoga kelganiga ham jadidlar boshlagan ishning mantiqiy davomi sifatida qarash o‘rinlidir.

Mamlakatimizda “Taraqqiy” gazetasining birinchi soni chiqqan kun – 27-iyun O‘zbekiston Milliy matbuoti kuni – matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarining bayrami sifatida nishonlanishi ham bizni quvontiradi.

Muxtor XUDOYQULOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ

(Boshlanishi o‘tgan sonda.)

Ahmedov Haydar – 1905-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan, quloqqa tortilgan, qatag‘ondan qochib yashiringan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning sobiq a’zosi. Hibsga olingan vaqtda oddiy xizmatchi bo‘lgan. Jazo muddati 1937-yil 15-sentyabrdan hisoblangan. Kolxozchilar orasida millatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik haqida mish-mishlar tarqatganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Mahmudxo‘jayev Bo‘rixo‘ja – 2321-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan. 1880-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, savdogar, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a’zosi. Doimiy ravishda millatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining taniqli arboblari bilan aloqadorlikda ayblangan.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi Uchlik 1937-yil 13-noyabr kuni 242 mahbus ustidan hukm chiqargan. Ular orasida jadidchilar ham bo‘lgan. Quyida ular haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz:

Qoziyev Nizom – 10742-sonli ish bo‘yicha hukm qilingan 1902-yili tug‘ilgan. “Turon” pankturkchi, millatchi tashkilotining a’zosi sifatida (1919–1923-yillar) qo‘rboshilarga maslahatchilik qilganlikda ayblangan. Otasi qozi bo‘lgan, hibsga olingan vaqtda kolxozda hisobchi bo‘lgan. Xalq dushmanlarining aksilinqilobiy faoliyatini maqtaganlikda ayblanib NKVD O‘zSSR Uchligi tomonidan 1937-yil 13-noyabrda O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan xalq dushmani sifatida 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 26-avgustdan hisoblangan.

10740-sonli ish bo‘yicha faqat andijonliklardan 28 kishi ustidan hukm chiqarilgan. Ularga jadidchi “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, degan ayb qo‘yilib hukm chiqarilgan. Quyida ular haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz:

Niyozov Hasanxon – 1895-yili Andijon shahrida tug‘ilgan, otasi mulkdor bo‘lgan, Mahkam qo‘rboshi to‘dasida faol ishtirok etgan. “Milliy ittihod”ning sobiq raisi. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining raisi sifatida yig‘ilishlar tashkil etganlikda, VKP(b) va sovet hukumatining siyosati to‘g‘risida aksilinqilobiy ma’lumotlar tarqatganlikda, “Musulmonobod”ni tashkil etish haqida gapirganlikda ayblangan. 1931-yili taniqli aksilinqilobchi arbob Muso Jurulloning xorijga chiqib ketishini tashkil etgan. Niyozov Hasanxonning mol-mulki musodara etilib, o‘zi otuvga hukm kilingan.

Burhon Mashrabiy – 1900-yili Andijon shahrida tug‘ilgan, savdogar oilasidan. Mahkam qo‘rboshi to‘dasi ishtirokchisi, aksilinqilobiy tashkilot a’zosi sifatida 1923-yili qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan. Aksilinqilobiy yig‘inlarda ishtirok etganlikda, bo‘hton tarqatganlikda ayblanib otuvga hukm etilgan.

Haydarov Abdujalil – 1889-yili Andijon shahrida boy oilada tug‘ilgan, sobiq savdogar. 1933-yili quloqqa tortilgan, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 1922 va 1923-yillarida ikki marta qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda ko‘rlar jamiyatida xizmat qilgan.

Aksilinqilobiy yig‘inlarning faol ishtirokchisi va tashkilotchisi sifatida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, mamlakatdagi ahvol to‘g‘risida tuhmat gaplarni tarqatganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Qoramandiyev Abdumutalib – 1897-yili Andijon shahrida tug‘ilgan, savdogar oilasidan. 1930-yili quloqqa tortilgan, “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan, surgunda bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda davlat urug‘chilik fondi do‘koni mudiri bo‘lgan. U aksilinqilobiy guruhlarning faol ishtirokchisi va tashkilotchisi sifatida, Sovet hokimyatiga qarshi kurashga chaqirganlikda, “milliy ittihodchilar”, troskiychilar va buxarinchilar otilayotganida ularga rahmdillik ko‘rsatganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Bahriddinov Domullajon – 1904-yili Andijon shahrida boy oilada tug‘ilgan. 1929-yili quloqqa tortilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Tashkilot topshirig‘i bo‘yicha aksilinqilobiy faoliyati uchun 1933-yili qamoqqa olingan va 4 oy turmada saqlangan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan. Aksilinqilobiy yig‘inlar tashkil etishda faollik ko‘rsatganlikda, bo‘hton, mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. Otuvga hukm etilgan.

Azizov Pattoh – 1900-yili Novqat qishlog‘ida tug‘ilgan. Savdogar oilasidan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi. Aksilinqilobiy tashkilotning murojaatlarini aholi orasida tarqatganlikda, g‘alayonlarda ishtirok etganlikda, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. Mehnat tuzatuv lagerida 10 yil qamoq jazosini o‘tashga hukm etilgan.

Nusratov Zokirjon — (Nusratiy Zokir) 1897-yil tug‘ilgan, Andijon shahridan, savdogar oilasidan. “Milliy ittihod”ga a’zo bo‘lgan, Mahkam qo‘rboshi to‘dasida faol ishtirok etgan. 1927-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Qamoqqa olinish paytida kolxozda hisobchi bo‘lib ishlagan.

Sovet hokimiyati olib borgan tadbirlarga qarshi norozilik bildirgan, “xalq dushmanlari”ning qamoqqa olinishiga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Sayfiyev Salax – 1897-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” a’zosi sifatida targ‘ibotchi vazifasini bajargan. 1919-yili bosmachilar to‘dasiga qo‘shilib, qo‘lida qurol bilan kurashgan. Buning uchun avval otuvga hukm etilgan, lekin bu hukm 5 yil ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan. Qamoqqa olish vaqtida Andijon shahar teatrida artist bo‘lib xizmat qilgan. O‘zining aksilinqilobiy qarashlarini pyesalari va she’rlarida aks ettirgan.

Mo‘minov Samandarboy – 1876-yili Panjikent rayoni Parxat qishlog‘ida tug‘ilgan. Savdogar bo‘lgan, xo‘jaligi 1925-yili yer-suv islohoti davrida tugatilgan. “Sho‘roi Islom” va “Milliy ittihod” tashkilotlari a’zosi. U mazkur tashkilotlarga moliyaviy ko‘mak berib turgan. 1927-yili moliya tashkilotlaridagi zararkunandachiligi uchun 6 yil-u 6 oyga ozodlikdan mahrum etilgan. 1937-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan, 2 yil-u 6 oy qamoqda saqlangan. Hibsga olingan paytda “Novaya sila” artelida xizmat qilgan. Sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy yig‘inlar ishtirokchisi sifatida, Sovet hukumatining tadbirlariga dushman ko‘zi bilan qaraganlikda, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda.)

MUJDA

“VATAN MANZUMASI” DAVOM ETADI

“Parchagina bulut, cheksiz os(i)mon, Adir ortidagi yolg‘izoyoq yo‘l”ni ko‘p sog‘inaman. Qahramon shoirimiz tasvirlagan manzara men tug‘ilgan qishloqqa juda ham o‘xshaydi. Shuning uchunmi, bilmadim, shu she’r bo‘lakcha ta’sir qilgan. Shu she’r bor kitob ham javonimning qo‘l yetar joyida turibdi. Har gal bu kitobga ko‘zim tushganda, shu she’rni topib o‘qiyman. Ko‘p vaqt o‘qimay qo‘ysam, sog‘inaman.

Odam ba’zan “Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o‘zbegim... Odamiylik dini birla toza iymon o‘zbegim”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “O, ota makonim, onajon o‘lkam” singari vatan, vatanparvarlik ifodalangan satrlarni ham sog‘inib qolarkan.

Ona vatan madh etilgan she’r-qo‘shiqlarni sog‘inib qolgan bitta menmi, deb yursam, “Vatan manzumasi”dan so‘ng bildimki, butun xalqimiz bunday kuy-qo‘shiqlarni, she’rlarni sog‘ingan ekan. Respublikamiz bo‘ylab o‘tkazilgan bu muhtasham ma’rifiy konsert elimizning sog‘inchiga, ko‘ngil ehtiyojiga malham bo‘ldi go‘yo. Bugungi dunyo va unda kechayotgan olag‘ovur hayot ham bunday she’rlarga, kuy-qo‘shiqlarga ehtiyoj borligini, kuchayganini ko‘rsatdi. Milliy dardkash shoirimiz Cho‘lpon bejiz “Adabiyot yashasa, millat yashar”, degan xulosaga kelmagan ekan.

O‘tgan yili harbiy xizmatchilar va yoshlarimizning yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini, jangovar ruhini kamol toptirish maqsadida butun mamlakatimiz bo‘ylab “Vatan manzumasi” nomli adabiy-ma’rifiy kechalar o‘tkazilganini yaxshi eslasangiz kerak. Ma’rifiy kecha O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgandi. Dastur Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan yangicha islohotlar tufayli yurtimizda shakllangan “Xalq bilan armiya – bir tan-u bir jon” degan ezgu an’anani, ayniqsa, ijodkorlar va harbiy xizmatchilar orasida yakdillikni yanada mustahkamlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida o‘tkazilgan edi.

– Mamlakatimizdagi tinch va osoyishta hayot, ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik, mehr-oqibatli bo‘lish oliy qadriyat ekani ushbu yorqin she’riy-musiqiy dastur orqali yana bir karra o‘z ifodasini topdi. Yurtimizdagi tinchlik va totuvlikni, ahillik va hamjihatlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash nafaqat harbiy soha vakillari, balki barcha hamyurtlarimiz, ayniqsa, yoshlarning muqaddas burchi ekani rang-barang musiqiy chiqishlar vositasida namoyish qilindi, – deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi harbiy-vatanparvarlik bo‘limi boshlig‘i Ma’mura Zohidova.

Ushbu adabiy kecha dastlab 26-yanvar kuni poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida namoyish etilgan bo‘lsa, keyingi kunlarda “Turkiston” san’at saroyida 12 kun davomida namoyish etildi. Respublikamizning barcha hududlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyat markazlarida san’at va madaniyat uylari, drama teatr binolarida uyushqoqlik bilan o‘tkazildi. Har bir hududda mahalliy ijodkorlar – iste’dodli shoirlar va xonandalar o‘z ijod namunalari bilan ishtirok etdi. O‘zbek adabiyoti namoyandalari Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Munavvar qori, Abdulhamid Cho‘lpon,





shuningdek, ko‘plab marhum ijodkorlar: Rauf Parfi, Shafoat Rahmatullayev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Azim Suyun, Enaxon Siddiqova kabi shoirlarning ta’sirchan she’rlari yod o‘qildi. Yosh ijodkorlarning vatanparvarlik ruhidagi she’rlari tinglovchilarda katta taassurot qoldirdi.

Darhaqiqat, har gal yig‘ilganlarning barchasi taniqli san’atkorlar bilan birga eng yaxshi qo‘shiqlarda vatan madhiga jo‘r bo‘lganlarini ko‘rdik. El suygan san’atkorlar, shoirlar, yozuvchilar ishtirokidagi bir-biridan mazmunli va qiziqarli chiqishlarda Vatan himoyasi yo‘lida jonini ayamagan tarixiy shaxslar va ular izidan borib yurt sarhadlari daxlsizligi uchun kechgan janglarda halok bo‘lgan bugunning mardlari madh etilganda hech bir tomoshabin “tomoshabin” bo‘lib qolmagani, qo‘shiqlarga jo‘r bo‘lib, she’rlarni birga aytib, chiqishlarni o‘rinlaridan turib tinglaganlari, ayniqsa, kishini to‘lqinlantirib yubordi.

“Bo‘lar ekan-ku shunday kechalar o‘tkazsa ham!” – deya samimiy qutlagan yurtdoshlarimiz ko‘p bo‘ldi.

Ha, haqiqatan ham, bo‘lar ekan-ku!

Vatanga muhabbat, el-xalqqa qayishish, tug‘ilgan yurtni asrab-avaylash kabi yuksak insoniy tuyg‘ular, aslida, hammaning yuragida bor. Faqat buni hamma ham ochiq-oshkor izhor qilavermas ekan, epini topib izhor qilish ham mushkul ekan, bu hammaning ham qo‘lidan kelavermas ekan. Lekin eng muhimi, har birimizning ichimizda bir Vatan yashar ekan. Ana shu Vatan “Manzuma” davomida bo‘y ko‘rsatdi, pinhon tuyg‘ularni tabassum va ko‘zyosh shaklida namoyon etdi. Hech kimga begona bo‘lmagan sof va yuksak tuyg‘u – Vatanni sevish va vatanparvarlik hech bir kishining kasbiga ham, koriga ham aloqasi yo‘q, hammada birdek mujassam ekanligini ro‘yirost isbotlab berdi.

Harbiy vatanparvarlik nima ekanini ko‘z oldimizga keltirish qiyin emas. Harbiy bo‘lmagan kishilardagi vatanparvarlik-chi? U qanday namoyon bo‘ladi?

Vatanni har kim o‘z quroli bilan himoya qiladi. Harbiy xizmatchi harbiy qurol-aslahasi bilan himoya qilsa, adib qalami bilan, olim ilmi bilan, kosib kasbi bilan. Hech bir inson o‘z yurtini birovga haqorat qildirib qo‘ymaydi, o‘z gapini, qat’iy javobini aytadi. Bu ham bir vatanparvarlik. Axborot jangi kechayotgan bugungi zamonada har bir kishining o‘z qat’iy pozitsiyasini bildirishi, e’lon qilishi, ayniqsa, eng kuchli qurolga aylanib bo‘ldi.

O‘z yurtini, elini sevishdek, ardoqlashdek baland hissiyotlarni eslatuvchi, qo‘zg‘ovchi, alangalatuvchi, o‘stiruvchi “Vatan manzumasi” har kuni, har hududda o‘tkazilishi kerak ekan. Buni bugunning o‘zi oydinlashtirdi. Bu gulxan har bir yurtdoshimiz qalbida yonib turishi, o‘chib qolmasligi kerak bo‘lgan o‘tdir. Bu o‘tni yanada gurillatadigan “o‘tin” – she’r, qo‘shiq, spektakl, umuman, san’at, adabiyot. Zero:

Elning shoirlari mizg‘igan asno,
Elning botirlari g‘aflatda qotgay.

El orasidagi chin botirlarni uyg‘otuvchi adabiy-ma’rifiy kechalar yurtimiz bo‘ylab bu yil ham o‘tkazilishi chin xushxabar bo‘ldi. Bu esa yana minglab-millionlab ko‘ngillarni yuksak insoniy tuyg‘ularga to‘ldirishiga ishonamiz. Xayyom kosasi mayga to‘lgandek, ko‘ngillarimiz muhabbatga, sadoqatga, shijoatga, bir so‘z bilan aytganda, qalbimiz Vatanga to‘lsa, naqadar go‘zal!

Mansur JUMAYEV

HUJJATLI QISSA

MIRZO QO‘QONBOY KIM EDI?

Jadidlik harakati faollaridan biri Mirzo Qo‘qonboy (Abdulhaq Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov) haqida bugun keng jamoatchilikka ko‘p narsa ma’lum emas. Ammo uning milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, maorif va huquq-tartibot tizimiga qo‘shgan hissasi salmoqli.

Mirzo Qo‘qonboy 1869-yil 10-sentyabrda Qo‘qon shahrida samarqandlik savdogar oilasida tug‘ilgan. Bu oila Samarqandga 1873-yilda qaytib kelishganida, bolaga Mirzo Qo‘qonboy laqabi tirkalgan edi. Keyinchalik bu laqab uning adabiy taxallusi bo‘lib qoldi.

Bo‘lajak adib va huquqshunos Samarqand madrasasida tahsil oladi. 1891-yilda Rossiyaga borgan Mirzo Qo‘qonboy rus tilini, huquqshunoslik sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini o‘rganadi. Keyin bir muddat davlat idoralarida tarjimon, huquqshunos bo‘lib ishlaydi.

O‘tgan asrning XX yillarida yuzaga kelgan jadidlik harakatiga qo‘shilib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi millat oydinlari bilan yaqin muloqotda bo‘ladi. O‘zi ham milliy adabiyotimizda yuzaga kelgan yangicha yo‘nalishda asarlar yoza boshlaydi.

Faoliyati davomida chorizm va mustamlakachilik siyosatining Turkiston xalqlariga nisbatan yondashuvi bilan tanishadi. 1916-yilda Rossiya hukumati tomonidan Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari ustidan o‘tkazilgan sud jarayoniga tarjimon sifatida jalb qilinadi. Abduxoliqov qo‘zg‘olonchilarni himoya qilib, Rossiyaga oid huquqshunoslik bo‘yicha o‘z bilimlaridan foydalangan holda, 30 nafar jizzaxlikning hayotini saqlab qoladi. Uning ana shu sud jarayonidagi ishtiroki, shaxsiy kuzatuvlari “Jizzax qo‘zg‘oloni” nomli hujjatli qissasidan ham o‘rin olgan.

Mirzo Qo‘qonboy Sovet hukumatining ilk davrida – 1924-yilda huquqshunoslik bo‘yicha mutaxassis sifatida bolsheviklar tomonidan Zarafshon o‘lkasiga katta sud tergovchisi etib tayinlanadi va Buxoroga ko‘chib o‘tadi. U yerda ham adliya ishini davom ettiradi. 1927-yilgacha Xalq Komissarligida alohida ishlar bo‘yicha tergovchi va ayni paytda davlat nashriyotining Samarqand bo‘limida tarjimon lavozimida ham faoliyat ko‘rsatadi.

Mirzo Qo‘qonboy nafaqaga chiqqach, asosan, badiiy ijod bilan shug‘ullangan. “Tog‘ qizi”, “Istadjon”, “Qamchidan qon tomganda”,



“Namoz” singari asarlarini yozadi. Milliy ruhdagi qarashlari, Turkistondagi ozodlik harakatlariga xayrixohligi uchun ta’qib ostiga olingan, qatag‘on yillari bir necha bor qamalib, qamoq muddatini o‘tab chiqadi.

Umrining so‘nggi yillarini ona shahri Samarqandda o‘tkazgan Mirzo Qo‘qonboy 1948-yilda vafot etgan.

Muhtaram “Jadid” gazetasi o‘quvchilariga uning “Jizzax qo‘zg‘oloni” asaridan ayrim sahifalarni taqdim etayapmiz.

TAHRIRIYAT

SO‘Z BOSHI

Mazkur asarda muallif o‘zi ko‘rgan va guvohi bo‘lgan voqealarni qalamga olmoqda. Matbuot mustabid tuzumning qo‘lida bo‘lganligi bois Jizzax qo‘zg‘oloniga doir hujjatlar, ayrim ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Zero, bu voqealarni vaqtli matbuot sahifalarida chop etishning iloji ham yo‘q edi.

1917-yilda inqilob sodir bo‘lib, inqilobdan keyin yuz bergan “Turkiston muxtoriyati” bilan bog‘liq milliy harakatlar Jizzax voqealarini bir qadar unutishga majbur qildi. Siyosiy bo‘hronlar ichida qolgan kishilar o‘z-o‘zlari bilan andarmon bo‘lib qoldilar.

To‘g‘ri, inqilobdan keyin Jizzax qo‘zg‘oloniga doir ba’zi bir maqolalar yozilgan bo‘lsa ham, lekin ular umumiy xarakterda bo‘lib, kurakda turadigan aniq bir gap yo‘q edi.

Albatta, qora kunlarni boshdan kechirgan odamlar inqilob arafasida ko‘p edi, ular hozir ham topiladi. Biroq ko‘pchilik savodsiz bo‘lgani sabab bu qirg‘inning miqyosi va ko‘lamini uncha yaxshi anglamaganlar. Jizzax qo‘zg‘oloniga guvoh bo‘lganlar ham o‘z boshlaridan kechgan ayrim voqealarnigina aytib berishlari mumkin, xolos.

Mirzo Qo‘qonboy ABDUXOLIQOV

JIZZAX QO‘ZG‘OLONI

Demak, masalaning asl mohiyati hali-hanuz ochilmay, sirligicha qolmoqda.

Jizzax qo‘zg‘olonida bevosita ishtirok etgan nakurtlik Barot Qo‘chqorov bu asardagi faktlarning aniqligiga guvohlik beradi. Bugungi kunda Toshkentda yashayotgan o‘rtoq Qo‘chqorov tarixchilarga o‘sha davr voqeligiga doir yangi materiallar, faktlar, dalillar taqdim etishi mumkin, deb o‘ylayman.

1916-YILGI JIZZAX VOQEALARI

1917-yilgi oktyabr inqilobi podsholik davri tartiboti, ma’muriyati va mansablari taqsimoti nomlarini butunlay yo‘qotib tashladi. Oradan uncha katta fursat o‘tmagan bo‘lsa-da, ya’ni o‘n to‘qqiz yil davomida o‘sha davr atama va nomlaridan hech bir nishon qolmadi. Bugun uyezd yoki bo‘lis va boshqalar, shuningdek, mansablarning nomlanishi va mansabdorlarning vazifalarini tuzukroq biladigan biror-bir kishini topish amrimahol.

1916-yilgi Jizzax voqealari jarayonida o‘sha mansabdorlar ishtirok etganlar va ularning mansablarini yozish zaruriyati sezilayotgani bois sobiq Turkiston ma’muriyatidagi mansablar taqsimoti tartibiga izoh berish lozim. Zotan, ushbu bitiklarni o‘qiyotganlar bu qanaqa lavozim-u mansab bo‘ldi deb hayron bo‘lmasin.

Turkiston Rusiya podsholigi tomonidan istilo etilgach, “Туркистанский край” (ya’ni muzofot) deb atala boshlandi. Muzofotni idora qilish uchun podshoh tomonidan general-gubernator tayinlanib, u podsho nomidan Turkistonni boshqarardi. Turkiston ahli uni o‘sha paytlar “yarim podsho” deyishardi. Poytaxt Toshkent edi.

Bu “Туркистанский край” o‘n besh viloyat va bir necha okrug yo sho‘baga bo‘linib, bu viloyat harbiy gubernator tomonidan idora qilinardi. Bu viloyatlar: Sirdaryo, Semirechinskiy (Yettisuv), Farg‘ona, Samarqand, Zakaspiyskiy va Amudaryo sho‘balaridan iborat edi. Har bir viloyat 4-5 uyezdga bo‘linib, uyezdlar nachalnik yoki uyezd hokimlari tomonidan boshqarilardi. Uyezdlar ham o‘z navbatida 4-5 uchastkaga bo‘linar va uchastkovoy pristufga bo‘ysunardi. Uchastkalar esa 6-8 vulusga taqsimlanib, ularni boshqarish волосной управителлар zimmasida edi. Mahalliy aholi bu volosnoylarni mingboshi ham der edilar. Har bir vulus esa 7-8 ta “Сельское общество” yoki dahaga bo‘linib, ular istarshina yo daha oqsoqoli tomonidan boshqarilardi. Сельское общество 10-15 qishloqdan tarkib topar va har 50 xonadonga ellikboshi tayinlanar va har bir vulusda народный sud (qozi) ish olib borardi. Keyingi paytlarda harbiylardan iborat oxrana ham paydo bo‘lgan edi...

Tog‘lik joylarda лесной исторжник yoki mahalliy til bilan aytganda “tog‘ begi” tayinlanardi. Ulardan tashqari, adliyaga o‘xshagan idoralar ham mavjud bo‘lib, biz tasvirlamoqchi bo‘lgan voqealarga unchalik daxldor bo‘lmagani sabab ularga to‘xtalib o‘tishni lozim topmadik.

Uyezddagi vulus taqsimotiga muvofiq har bir urug‘ (qabila) bir ulusga kirardi. Agar muayyan urug‘ga mansub kishilar kamchilik bo‘lib, vulus bo‘lishga loyiq hisoblanmasa, boshqa urug‘ kishilari ham shu vulusga kiritilardi. Волосной, qozi, istorshina kabi mahalliy ma’murlar ular mansub bo‘lgan urug‘ ichidan belgilanardi. Qo‘shni vuluslardan o‘zga vuluslarga ma’mur tayinlash mumkin emas edi. Bu siyosatning ma’nosi shunda ediki, har bir vulus o‘zicha mustaqil bo‘lsin, boshqasiga aloqador bo‘lmasin, asosiysi, ixtilof keltirib chiqaradigan biror-bir sababga o‘rin qolmasin. Shu tariqa har bir vulus o‘ziga xos feodal bir hukumat edi.

QO‘ZG‘OLON SABABLARI

Qo‘zg‘olonning sabablari ko‘p, lekin bu o‘rinda ularning barini bayon qilib bo‘lmaydi. Shu bois eng muhim va zarur sabablargagina to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Chor Russiyasining Turkistonni zabt etish bahonalaridan biri shunda ediki, go‘yoki turkistonliklar “vahshiy” yoki “yarim vahshiy” xalq bo‘lib, Russiya hududlariga doim bosqin uyushtirib kelganlar. Binobarin, ularni “madaniyatli” qilish missiyasi hamda Rusiya chegaralari daxlsizligini ta’minlash uchun Turkistonga yurishga majburiyat sezgan ekanlar. Har holda Rusiya podshosi Pyotr I ning mashhur vasiyatiga amal qilib, Turkistonni bosib oldi. Qo‘qon xonligini butunlay yo‘qotib, Buxoro amirligi va Xiva xonligini asoratga soldi. Ular nomigagina “mustaqil” va “xon” bo‘lib, aslida esa oq podshoga tobe va qaram edilar.

Istilodan asosiy maqsad bepoyon Turkiston yerlarini egallash, tub joy aholisini yo‘q qilish evaziga bo‘lsa ham o‘z fuqarolarini ko‘chirib kelishdan va o‘troqlashtirishdan iborat edi.

Rusiya hukumati bir o‘q bilan ikkita quyonni urmoqchi bo‘lardi, ya’ni Markaziy Rusiyada pomeshchik(katta yer egasi)ning yoqasidan olishga shay turgan krestyan-dehqonlarni Turkistonga ko‘chirib, ham o‘z yurtini tinchitmoqchi, ham Turkistonda slavyanlarni ko‘paytirmoqchi bo‘lardi. Zero, “velikorus”chilikka asoslangan umumrussiya siyosati bosib olingan o‘lkalarda ko‘ngillari tusagan ishni amalga oshirardilar. Chunonchi, Qrim, Tatariston, Boshqirdiston, Tog‘li Kavkaz, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi tanazzulga yuz tutgan o‘lka xalqlari millat sifatida yo‘qolish arafasida turardiki, shu jumlaga Turkiston ham kirardi.

(Davomi kelgusi sonda.)

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4583
Lotin yozuvidagi adadi – 11841
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:50
Sotuvda narxi erkin.